

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI XUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSC.15/31.12.20.I.09.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**NADIRXANOV UBAYDULLA SABIROVICH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI  
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH JARAYONINING  
BOSHQARISHINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – «Menejment»  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UO‘K: 339.727.22

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Content of the abstract Doctoral (DSc) dissertation**

**Nadirhanov Ubaydulla Sabirovich**

O‘zbekiston Respublikasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning jarayonining boshqarishini takomillashtirish ..... 3

**Надирханов Убайдулла Сабирович**

Совершенствование управления процессом привлечения прямых иностранных инвестиций в Республику Узбекистан ..... 47

**Nadirhanov Ubaydulla Sabirovich**

Improving the process management of attracting foreign direct investment in the Republic of Uzbekistan. .... 91

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 96

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI XUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSC.15/31.12.20.I.09.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI**

**NADIRXANOV UBAYDULLA SABIROVICH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI  
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH JARAYONINING  
BOSHQARISHINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.13 – «Menejment»  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida  
№ B2025.2.DSc/Iqt39 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Tursunho‘jaev Marat Lutfullaevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**smiy opponentlar:**

**To‘raev Bahodir Xatamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamidulin Mihail Borisovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali O‘ralovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti xuzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi Dsc.15/31.12.2020.I.09.04 raqamli Ilmiy kengashining 2025 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel./faks: (+99871) 2935754, e-mail: [rector@tstu.uz](mailto:rector@tstu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universiteti Ahborot-resurs markazida tanishish mumkin (162-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent, Temiryolchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel./faks: (+99871) 2935754.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi)

**O.K.Abduraxmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, texnika fanlari doktori, professor

**M.I.Akbarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi,  
dotsent

**A.A. Gulamov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (Doktor (Dsc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilish jarayonini boshqarishni takomillashtirish mamlakatlarning iqtisodiy o‘shishi, texnologiyalar transferini rag‘batlantirish va tashqi bozorlarga integratsiyalashuvini chuqurlashtirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy globallashtirish sharoitida samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish TTXI oqimini barqaror va maqsadli yo‘naltirishga xizmat qilib, mahalliy ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va yuqori malakali ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi. Shuningdek, TTXIning jalb etish bo‘yicha tizimli va shaffof boshqaruv strategiyasi xalqaro investitsiya muhitining yaxshilanishiga, iqtisodiy barqarorlik va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘shishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Jahon bankining “Jahon iqtisodiy istiqboli” hisobotiga ko‘ra, “rivojlanayotgan mamlakatlar global rivojlanish maqsadlariga erishish uchun 2030 yilga borib sarmoyalarni anchagina – yiliga taxminan 2,4 trillion dollarga oshirilishini ta‘minlashi talab etiladi. Taxminlarga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalar o‘shishi jon boshiga 2023 va 2024-yillar davrida o‘rtacha bor-yo‘g‘i 3,7% ni tashkil etdi, bu avvalgi yigirma yillik ko‘rsatkichning yarmidan biroz ko‘proq. Iqtisodiyoti taraqqiy etgan 35 ta va rivojlanayotgan 69 ta mamlakat so‘nggi 70 yillik tajribasini tadqiq etish asosida aniqlanishicha, aholi jon boshiga investitsiyalar o‘shishini olti yil davomida 4 foizgacha saqlab turilsa, rivojlangan mamlakatlardagi daromad darajasiga yaqinlashish darajasi tezlashib, kambag‘allik darajasi tezroq pasayar va unumdorlikning o‘shish sur‘ati esa to‘rt baravar ko‘tarilar ekan”<sup>1</sup>. Demak, mazkur jarayonni takomillashtirish milliy manfaatlariga xizmat qiluvchi, strategik muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari global investitsiya muhitining o‘zgaruvchan tendensiyalarini tahlil qilish, milliy qonunchilik va institutsional islohotlarning samaradorligini baholash, investitsion risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, strategik tarmoqlarni aniqlash va ular uchun maqsadli rag‘batlantirish choralari ishlab chiqishga qaratilgan. Ushbu tadqiqotlar, ayniqsa, raqamli transformatsiya, yashil iqtisodiyot va innovatsion infratuzilmalarning rivojlanishi sharoitida TTXI oqimlarini boshqarishning yangi yondashuvlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik mexanizmlari va mintaqaviy integratsiya jarayonlari bilan bog‘liq ilmiy tahlillar ham TTXIning samarali boshqarishda ustuvor ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarishni takomillashtirish bo‘yicha belgilangan vazifalar iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, qulay investitsiya muhitini yaratish, zamonaviy infratuzilmalarni rivojlantirish va huquqiy kafolatlarni mustahkamlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar jumlasiga “Yagona

---

<sup>1</sup> Jahon bankining “Jahon iqtisodiyotining istiqbollari” ma‘ruzasi (2024) [www.worldbank.org/gep](http://www.worldbank.org/gep)

investitsiya oynasi” tizimining joriy etilishi, soddalashtirilgan ruxsatnoma va litsenziya berish tartiblari, erkin iqtisodiy zonalarining faoliyatini kengaytirish, hamda xorijiy investorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni kuchaytirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarning shakllantirilishi kiradi. Shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlarining taklif etilishi, investitsiya loyihalarining ochiqligini ta‘minlovchi raqamli platformalarning yaratilishi va inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar orqali ham TTXI jalb qilish siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Mazkur choralar O‘zbekistonning global investitsiya maydonidagi raqobatbardoshligini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda eksport hajmi 2,2 barobar oshib, yalpi ichki mahsulotdagi tashqi savdo ulushi 57 foizga yetdi. Biroq, global iqtisodiy vaziyatning beqarorligi, vaziyatning o‘zgarishi, yangi tariflar va cheklovlar boshqa mamlakatlarga ta‘sir qiladi, jahon iqtisodiy o‘shishini sekinlashtiradi va xalqaro savdo hajmini kamaytiradi. Ta‘minot zanjirlari va yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishda uzilishlar butun dunyo bo‘ylab sodir bo‘lishi mumkin. Bu xalqaro bozorlarda qattiq va murosasiz raqobatga olib keladi <sup>2</sup>. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi 2030-yilga borib, aholi jon boshiga o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori daromad oladigan davlatlar qatoridan o‘rin olishi shart. “Bunga, birinchi navbatda, xususiy sektorni rag‘batlantirish va uning ulushini oshirish, shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali erishiladi”.<sup>3</sup> Respublikaga, birinchi navbatda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) ko‘rinishida jalb qilinayotgan xorijiy kapitalning samaradorligini oshirish zarurati boshqaruv tizimini takomillashtirishni, shuningdek tushunchalar apparati va ular tasnifiga aniqlik kiritilishini taqozo etadi. Bu O‘zbekiston sharoitlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning turli shakllarini boshqarishning yuqori darajasiga erishish va shu asosda investitsiya muhitini yaxshilashning institutsional mexanizmlarini ishlab chiqish uchun zarur asos yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 7-sentabrdagi PF-215-son “To‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-yanvardagi PF-5614-son “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-son “O‘zbekiston Respublikasida Ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PQ-4300-son “Respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 13-

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning global iqtisodiy tebranishlarning O‘zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi, 2025-yil 18-aprel <https://kknews.uz/241019.html>.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning inauguratsiya marosimidan so‘ng chiqishi. 06.11.2021:// [tafsilar.info/politika/v-den-inauguracii-shavkat-mirziyoev-vystupil-s-rechju/](https://tafsilar.info/politika/v-den-inauguracii-shavkat-mirziyoev-vystupil-s-rechju/). Xalq so‘zi, 2021 yil, 7 noyabr.

noyabrda PQ-4519-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Xorijiy investorlar kengashini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 21-iyundagi PQ-3796-son “Xalqaro moliya institutlari va donor mamlakatlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I “Demokratik-huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi.** Xorijiy kapitalni (jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni) jalb qilish va ulardan foydalanish jarayonlarini boshqarishning uslubiy yondashuvlarini tadqiq etish dunyoning yetakchi tadqiqot markazlari, oliy ta‘lim muassasalari va yirik reyting agentliklari, xususan, Business Environment Risk Index (BERI), Moody’s, Standard & Poor’s, World Bank Institute, Harvard University, University of Chicago (AQSh), JICA (Yaponiya), KOICA (Koreya Respublikasi), University of Bonn, GIZ, Bertelsmann Transformation Index (Germaniya), Asian Development Bank, The European Bank for Reconstruction and Development, London School of Economics and Political Science, Stockholm Institute of Transition Economics va boshqalar tomonidan amalga oshiriladi. Xorijiy kapitaldan foydalanish jarayonini boshqarishni takomillashtirishda turli mamlakatlar guruhlarini – Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) Rossiya Fanlar Akademiyasi Iqtisodiyot instituti, Oliy Iqtisodiyot maktabi, Tashqi savdo akademiyasi, Rossiya), Yevropa Ittifoqi: Business School University of Navarra, (Ispaniya), Lappeenranta University of Technology, (Finlandiya), Ambrosetti international management consulting group, Milan (Italiya), Adam Mickiewicz University in Poznan (Polsha), Janubi-Sharqiy Osiyo (Singapur menejment universiteti; Iqtisodiyot maktabi, Xitoy; Kyung Xi universiteti, Chung-Ang universiteti, Koreya Respublikasi) va ilmiy markazlari, O‘zbekiston Milliy universitetida, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiyot va mintaqaviy tadqiqotlar instituti tomonidan olib borilmoqda.

Jahonda investitsiya faoliyatini samarali boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida, xususan, quyidagi muhim ilmiy natijalarga erishilgan: investitsiya faoliyatini boshqarish usullari, mexanizmlari va vositalari asoslangan (Jahon banki instituti, Vashington); jahon savdosi darajasining to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlik tadqiq etilgan (Report of the Committee on Trade-Related Investment Measures, WTO), to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning xalqaro oqimlarini boshqarish mexanizmi tadqiq etildi (European Bank for Reconstruction and Development, London); jalb qilingan investitsiyalar investitsion jozibadorligi asoslanib, ular tahlili bajarildi, shuningdek o‘tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda investitsiya jarayonlarini samarali boshqarish yo‘llari ochib

berilgan (Asian Development Bank Institute, Tokio); investitsiyalarni kam uglerodli sohaga jalb qilish istiqbollari va samaradorligi aniqlangan (World Investment Report, UNCTAD); "yashil" investitsiyalarni faol jalb qilish muammolari o'rganilgan (OECD, Parij), hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishning yashirin institutsional mexanizmlari ochib berilgan (Ambrosetti international management consulting group, Milan); investitsiya faoliyatini davlat, tarmoqlar va hududlar darajasida boshqarish mexanizmlari belgilangan (Singapore Management University), milliy iqtisodiyotlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini baholash metodologiyasi tadqiq etilgan (Germaniya Federativ Respublikasi Bremen Universitetining Jahon iqtisodiyoti va xalqaro menejment instituti) va boshqalar.

Dunyoda TTXI larni jalb qilish va ulardan foydalanish jarayonlarini samarali boshqarish muammolari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari, shu jumladan barqaror rivojlanish va investitsiya jarayonlari o'rtasidagi munosabatlarning joriy tendensiyalarini baholash (Jahon banki instituti, Vashington); xalqaro kapital bozori va xorijiy kapitalni jalb qilish geografiyasi (UNDP, UNCTAD), qulay investitsiya muhitini yaratish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, London) kabilar tomonidan olib borilmoqda.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot xorijiy va mahalliy olimlarning, birinchi navbatda, TTXI lar ko'rinishidagi xalqaro kapital harakati masalalariga bag'ishlangan ishlariga asoslangan. Bu yo'nalish muamolarini o'rganishga iqtisodiyot fanining klassiklari - A. Smit, D. Rikardo, J. Shumpeter, D. M. Keyns va - C. Kindleberger, E. Heckscher, B. Ohlin, S. Heimer, R. Caves, D. Dunning, M. Porter, P. Fisher, V.D. Averkin, A.S. Bulatov, N.N.Liventsev<sup>4</sup> va kabi zamonaviy mualliflar asarlari katta hissa qo'shdi.

MDX davlatlar olimlari Kokushkina I.V., Misakyan M.I., Petrushkevich E.A., Shakina A., Tsvetkova N.N. kabi olimlarning ilmiy ishlarida bozor munosabatlari shakllanayotgan mamlakatlarning milliy iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishning xususiyatlari ochib berilgan<sup>5</sup>.

---

<sup>4</sup> Dunning, J.H., International Production and the Multinational Enterprise, Jorj Allen@Unwin (Publishers) Ltd., London, Buyuk Britaniya, 1981; Bos, H.C., Sanders, M. va Secchi, C., Rivojlanayotgan mamlakatlarda xususiy xorijiy investitsiyalar: baholash bo'yicha miqdoriy tadqiqot. Makro-iqtisodiy ta'sirlar, D. Reidel nashriyoti, Dordrecht-Holland va Boston-AQSh, 1974; Vernon R. Xalqaro savdo va mahsulot aylanishiga xalqaro investitsiyalar // Iqtisodiyotning choraklik jurnali. – Garvard, 1966; Hymer, S.H., Milliy firmalarning xalqaro operatsiyalari: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha tadqiqot, MIT Press, Massachusetts, 1976; Kindleberger, C.P., Amerikaning chet eldagi biznesi: to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha oltita ma'ruzalar, New Haven, Yale University Press, 1969; Weibel, M.R., Aufbau und Fuehrung von auslaendischen Direktinvestitionen in Russland, Dissert.No 2512, Difo-Druck, GmbH, Bamberg, 2001; Zschiedrich, H., Auslaendische Direktinvestitionen und Regional Industriepolitik im Verpaapa, Hamburg, O'zbekiston, 2006, Johimsen R. und Knobel H. (Hrsg.), Gegenstand und Methoden der Nationaloekonomie, Koeln, 1971; M. Blomstroem va F. Sjoeholm, Texnologiyalarni uzatish va tarqatish: qiladi. Ko'p millatli tashkilotlar bilan mahalliy ishtirok etish muhimmi? Ishchi hujjat 6816, Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi, Kembrij, 1998.

<sup>5</sup> Кокушкина И.В., Мисакян М.И. Прямые иностранные инвестиции в странах СНГ: современные проблемы // Вестник СПбГУ, 2006, сер.5, вып.4; Мисакян М.Н., Кокушкина И.В. Теории прямых иностранных инвестиций: практическое значение для переходных экономик // Проблемы современной экономики. С.-П.: 2006, № 4(24); Петрушкевич Е. Закономерности прямых иностранных инвестиций в СНГ // Минск-Банкаускі веснік, 2008; Шакина А. Прямые иностранные инвестиции в странах Восточной Европы Мировая экономика и международные экономические отношения -М.: 2003, №2.; Цветкова Н.Н. Прямые иностранные инвестиции в Азии и России: опыт сравнительного анализа. -М.: 2004.

Globalashuv sharoitida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rivojlantirish tendentsiyalari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni shakllantirish Gubaydullina F., Zell A. asarlarida ko'rib chiqilgan.<sup>6</sup>

O'zbekistonda xorijiy kapitalni jalb etish va undan foydalanishning nazariy asoslari A.V.Vahobov, S.S. G'ulomov, B. Berkinov, N.G. Karimov, M.Nazarqulov, N.Sirajiddinov, A.Ulmasov, A.X.Xikmatov, D.D. Rustamova, L.R.Shayusupova, Sh.G.Yuldashev va boshqa olimlar asarlarida ko'rib chiqilgan<sup>7</sup>. Muammoning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq ayrim jihatlari A.Alimov, R.Abduraupov, X.Amonov, F.Maqsudov, E.Maxmudov, N.Oblomurodov, D. Rasulev, B. Valiyev, S Murtazoyev kabi olimlar asarlarida ko'rib chiqilgan<sup>8</sup>.

Shu bilan birga, mahalliy mutaxassislar tomonidan O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar masalalariga bag'ishlangan ishlar soni ko'payganiga qaramay, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni jalb qilish va boshqarish jarayonlari muammolari haligacha to'liq o'rganilmagan.

Shunga bog'liq holda, bevosita TTXI larni boshqarish jarayonlarini tizimli va har tomonlama o'rganish zarurati yuzaga keldi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni boshqarish tuzilmasi, shuningdek, ularning eksportga yo'naltirilgan siyosatni shakllantirishdagi o'rni, O'zbekiston mintaqalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va respublika iqtisodiyoti real sektori ishlab chiqarish bazasini texnologik modernizatsiya qilishda ularning ro'li yetarlicha o'rganilmagan. Bu tadqiqot metodologiyasining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini aniqlash bilan dissertatsiya tadqiqoti mavzusini tanlashda asos bo'lib xizmat qildi.

---

<sup>6</sup> Губайдулина Ф. Прямые иностранные инвестиции, деятельность ТНК и глобализация//Мировая экономика и международные экономические отношения, 2003, №2.; Sell, A. Multinationale Unternehmen //Institut fuer Weltwirtschaft und Internationales Management der Universitaet Bremen -Rev. Okt. 2006.

<sup>7</sup> Berkinov B. To'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar samaradorligi// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №5, 2015 yil, Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Moliya, 2010. – 324 b., Karimov N.G. Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiyalarni moliyalashtirish bozor mexanizmlarini joriy etish muammolari: Ikt. fan. doktori ilmiy darajasini olish uchun yo'naltirilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2007. – 40 b., Abduraupov R. O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalar salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. T.: TDIU. Doktorlik dissertatsiya avtoreferati. 2016.-81b., Rustamova D.D. Iqtisodiyotni erkin boshqarish jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yo'nalishlari: Iqt. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2006. – 23 b.; Shayusupova L.R. Privlechenie inostrannykh investitsiy v razvitie telekommunikatsionnoy sfery Respubliki Uzbekistan: Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kand. ekon.nauk. – Tashkent: 2001. – 26 s., Xaydarov N.X. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar imkoniyatlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №1, 2011 yil; Yuldashev Sh.G. Inostrannye investitsii kak faktor ekonomicheskogo rosta i liberalizatsii natsionalnogo vosproizvodstva Respubliki Uzbekistan: Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni dokt.ekon.nauk. – Toshkent: 2001. – 37 s.

<sup>8</sup> Valiev B.B. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ta'minlashda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish: Iqt. fan. doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2017. –46 b., M.Al Djaber. Teoreticheskie aspekty privilecheniya pryamyh inostrannykh investitsiy v usloviyax modernizatsii ekonomiki. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni kand. ekon.nauk. – Tashkent: 2011. – 26 s., N. Oblomurodov. Sovershenstvovanie ekonomicheskogo mexanizma privilecheniya pryamyh inostrannykh investitsiy. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni dokt.ekon.nauk.(fan doktori) – Toshkent: 2024. –76 s., Murtozayev S. O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlat institutlarining o'rni. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.T.: 2024. -61 b.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Iqtisodiyot institutining ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq – 7F “Bozor iqtisodiyoti, nazariya, davlat va huquq” davlat dasturi, fundamental tadqiqot ishlarining FA-F7-004 "Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini rivojlantirishning innovatsion modeli" loyihasi (2007 yil iyul - 2011 yil dekabr) doirasida, Germaniyaning Bremen universiteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro menejment institutining uslubiy va axborot yordami bilan (2007-2012) amalga oshirildi.

Dissertatsiya tadqiqoti muallif tomonidan 2020-2023 yillarda Toshkent davlat transport universitetida Germaniyaning Drezden texnik universiteti bilan hamkorlikda “Oliy ta'lim tizimida talabalar va o'qituvchilarning mobilligi” xalqaro ERASMUS+ granti doirasida olib borilgan tadqiqot yo'nalishiga mos keladi.

**Tadqiqot maqsadi** O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

xalqaro kapital bozorida raqobatning kuchayib borish sharoitlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonini boshqarishni takomillashtirishga tizimli yondashuvni asoslash;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarishning uslubiy asoslarini ochib berish, shuningdek ularning tasnifini ishlab chiqish;

«to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar» va «chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar» tushunchalarini qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish dinamikasi va tendensiyalarini, hududiy va tarmoq tuzilmasini tahlil qilish va respublikada ulardan foydalanish samaradorligini baholash;

MDH, Markaziy va Sharqiy Evropa, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarish tajribasini tahlil qilish, ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlash;

xalqaro va milliy miqyosda investitsiya muhitini shakllantirishning umumiy xarakteri va tavsiflarini tahlil qilish;

O'zbekiston iqtisodiyoti investitsiya muhitining jozibadorligini cheklovchi tashqi va ichki omillarni aniqlash;

Xatar (risk)larni boshqarish, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga ijobiy va salbiy ta'siri majmuini aniqlash;

O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonini boshqarishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini va uni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** O'zbekiston Respublikasida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilishni boshqarish jarayonidan iborat.

**Tadqiqot predmeti** bo'lib jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv sharoitida O'zbekiston Respublikasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish jarayonlari bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida induksiya va deduksiya, umumlashtirish va guruhlash, qiyosiy va dinamik tahlil, monografik tadqiq etish, ekspert baholash, tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra xalqaro investitsiya aloqalarini tartibga solish maqsadida "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar" tushunchasining iqtisodiy mazmunini qayta ko'rib chiqish, jumladan, mahalliy subyektlar tomonidan xorijiy iqtisodiyotga kiritilayotgan kapital shakllarini TTXI sifatida qonuniy maqomga ega qilish bo'yicha normalarni qonunchilikka kiritish orqali transchegaraviy investitsiya oqimlarining ikki tomonlama hisobini yuritish imkonini yaratish asosida takomillashtirilgan;

institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, mamlakatning ichki va tashqi tahdidlarga moslashish qobiliyatini, milliy iqtisodiy manfaatlarni global integratsiya sharoitida himoya qilish zaruratini hisobga olgan holda tizimli va kompleks yondashuv asosida boshqaruv modelini joriy etish orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilish jarayonini samarali boshqarish asoslangan;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tipologiyasi 100% xorijiy kapitalga ega bo'lgan xorijiy korxonalar (XK) va 1–99% xorijiy ulushga ega bo'lgan qo'shma korxonalar (QQ) sifatida differentsiallashtirish asosida ishlab chiqilgan sifat va miqdor ko'rsatkichlariga ko'ra tasniflash metodologiyasi orqali respublikada xorijiy investitsiya muhitini monitoring qilish, ularning iqtisodiyotga ta'sirini baholash hamda har bir turdagi korxonalar rivojlanish trayektoriyasini aniqlash imkoniyati yaratilgan;

TTXIning jalb qilishni qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati doirasida "Maxsus investitsiya fondi"ni tashkil etish orqali istiqbolli investitsion loyihalarni kafolatlash, tadbirkorlarni bank kreditlariga bo'lgan kirish imkoniyatini kengaytirish va sug'urta to'lovlari vositasida tavakkalchilik darajasini kamaytirish orqali biznes muhitining jozibadorligini oshirish orqali milliy iqtisodiyotga investitsiyalar har yili o'rtacha 10–15% ko'proq jalb etish imkoni asoslangan;

jahon bozorida yuzaga kelayotgan geoqisodiy o'zgarishlar, "yashil iqtisodiyot" talablari va iqtisodiy xavfsizlik omillarini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish zanjirlarini qayta shakllantirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida faoliyat yurituvchi yangi institutlarni joriy etish hamda "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi"ni ishlab chiqish orqali YAIMda TTXI ulushining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

o'rtacha muddatli rivojlanish strategiyasi ishlab chiqildi va xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatida tatbiq etilib, bu korxonaning raqobatbardosh salohiyati va mahsulot eksporti yaxshilanishiga olib kelgan;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investorlarni jalb qilishga oid takliflarni baholash jarayonida ularning respublika real sektori (neft-gaz sektori, mashinasozlik, telekommunikatsiya va b.) milliy ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarida ishtirok etishi maqsadida potensial xorijiy investorlarga nisbatan selektiv siyosat yuritish zarurligi asoslab berilgan;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish shakllarini tizimlashtirish va tasniflash, shuningdek, xorijiy kapitalni va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyatining xususiyatlarini hisobga olish tizimi taklif etilgan;

“investitsiyalarni olib chiqish” tushunchasini ta'riflashning uslubiy qoidasi tavsiya etilib, bu jahon trendlariga muvofiq O'zbekiston milliy kapitalini xorijga eksport qilish (olib chiqish) jarayonini to'liqroq hisobga olish va boshqarish, uni davlat tomonidan boshqa mamlakatlar bozorlarida qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari bilan ta'minlash imkonini bergan;

O'zbekiston Respublikasiga xorijiy kapitalni davlat tomonidan boshqarishning ma'muriy, institutsional va iqtisodiy usullari kombinatsiyasini o'z ichiga olgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish mexanizmini shakllantirishning kompleks yondashuvi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, rasmiy manbalar ma'lumotlaridan, shu jumladan Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi statistik ma'lumotlaridan foydalanilganligi bilan tasdiqlanib, shuningdek taqdim etilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalar amaliyotda sinab ko'rilganligi, olingan ilmiy natijalar ma'qullanligi bilan tasdiqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishni takomillashtirish va respublika, uning tarmoqlari va hududlari investitsiya jozibadorligini oshirish mexanizmi masalalariga bag'ishlangan maxsus ilmiy ishlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini ta'minlash bo'yicha qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarni tayyorlashda ulardan foydalanish imkoniyatidan iborat. Dissertatsiya muallifining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni chetga olib chiqishdagi xulosalari, xususan, raqobatdosh ustunliklardan foydalanish – tajriba, texnologiya, oqilona narx siyosati, yangi bozorlarni o'zlashtirish va kengaytirish, xarajatlarni minimallashtirish, tashqi bozorlarda mahalliy xomashyo va inson resurslaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiyot masalalari

qo'mitasi tomonidan investitsiya faoliyatiga oid amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va kelgusida ishlab chiqish ishlarida foydalanilmoqda.

Xorijiy investitsiyali korxonalarini va ular tomonidan xorijiy kapitalni investitsiya qilish shakllari bo'yicha taklif qilingan ko'rsatkichlar tizimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan statistik ko'rsatkichlarni hisoblash vositalarini tayyorlashda qo'llanilishi mumkin. Tadqiqot materiallaridan respublika boshqaruv kadrlarini, investitsiya jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan menejerlarni, yirik investitsiya loyihalari, mahsulot taqsimoti shartnomalari (MTSH) ishtirokchilari va menejerlarini tayyorlash va malakasini oshirishda, o'quv jarayonida iqtisodiyot muammolari bo'yicha, xususan, iqtisodiy nazariya, tashqi savdo, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, xorijiy investitsiyalar kurslarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarini tatbiq etish.** To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra xalqaro investitsiya aloqalarini tartibga solish maqsadida "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar" tushunchasining iqtisodiy mazmunini qayta ko'rib chiqish, jumladan, mahalliy subyektlar tomonidan xorijiy iqtisodiyotga kiritilayotgan kapital shakllarini TTXI sifatida qonuniy maqomga ega qilish bo'yicha normalarni qonunchilikka kiritish orqali transchegaraviy investitsiya oqimlarining ikki tomonlama hisobini yuritish imkonini yaratish asosida takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalarini uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiy xavfsizlik" darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2022 yil 20 maydagi 106-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifni hayotga tatbiq etish natijasida oliy ta'lim muassasalari talabalarining "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar", "milliy xavfsizlik", "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchalarini takomillashtirish va tizimli o'zlashtirish, xorijiy kapitalni jalb qilish bilan bog'liq xavf va tahdidlarni aniqlash bo'yicha nazariy bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, mamlakatning ichki va tashqi tahdidlarga moslashish qobiliyatini, milliy iqtisodiy manfaatlarni global integratsiya sharoitida himoya qilish zaruratini hisobga olgan holda tizimli va kompleks yondashuv asosida boshqaruv modelini joriy etish orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilish jarayonini samarali boshqarish taklifidan O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi faoliyatida foydalanilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025-yil 24-iyundagi 20/20-1667-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifni amalga oshirish uzoq muddatli rejalashtirish, resurslarni kontsentratsiyalash, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishni kengaytirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida barqarorlikni oshirish orqali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish imkonini yaratgan;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarini tipologiyasi 100% xorijiy kapitalga ega bo'lgan xorijiy korxonalar (XK) va 1–99% xorijiy ulushga ega bo'lgan qo'shma korxonalar (QQ) sifatida differentsiallashtirish asosida ishlab chiqilgan sifat va

miqdor ko'rsatkichlariga ko'ra tasniflash metodologiyasi orqali respublikada xorijiy investitsiya muhitini monitoring qilish, ularning iqtisodiyotga ta'sirini baholash hamda har bir turdagi korxonalar rivojlanish trayektoriyasini aniqlash taklifidan O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi faoliyatida foydalanilgan (O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025-yil 24-iyundagi 20/20-1667-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifni amalga oshirish xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar turlarini tasniflashga, xorijiy korxonani (XK - 100%) va qo'shma korxonaning (QK) turli shakllarini ajratishga olib keladi, bu nafaqat xorijiy investor tomonidan boshlang'ich kapital qo'yilmalarini kuzatish, balki uni keyinchalik xorijiy korxonalar yo'nalishida rivojlantirish imkonini beradi, ya'ni respublika investitsiya muhitini monitoring qilish va baholash vositalaridan biri bo'lib xizmat qilgan;

TTXIning jalb qilishni qo'llab-quvvatlashning davlat siyosati doirasida "Maxsus investitsiya fondi"ni tashkil etish orqali istiqbolli investitsion loyihalarni kafolatlash, tadbirkorlarni bank kreditlariga bo'lgan kirish imkoniyatini kengaytirish va sug'urta to'lovlari vositasida tavakkalchilik darajasini kamaytirish orqali biznes muhitining jozibadorligini oshirish orqali milliy iqtisodiyotga investitsiyalar har yili o'rtacha 10–15% ko'proq jalb etish taklifidan O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi faoliyatida foydalanilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025-yil 24-iyundagi 20/20-1667-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning hayotga tatbiq etilishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalari doirasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va bank kreditlari olish kafolatlarini kengaytirish, innovatsion jarayonlarga investitsiyalarni jalb qilish va tavakkalchilik darajasini pasaytirish (sug'urta to'lovlari qoplash uchun xizmat qiladi) orqali ishbilarmonlik muhitining jozibadorligini oshirishga olib kelgan;

jahon bozorida yuzaga kelayotgan geoqisodiy o'zgarishlar, "yashil iqtisodiyot" talablari va iqtisodiy xavfsizlik omillarini hisobga olgan holda, ishlab chiqarish zanjirlarini qayta shakllantirish va raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida faoliyat yurituvchi yangi institutlarni joriy etish hamda "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi"ni ishlab chiqish orqali YAIMda TTXI ulushining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi faoliyatida foydalanilgan ("O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasining 2025-yil 24-iyundagi 20/20-1667-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy taklifni amalga oshirish kompaniyaning tashqi bozorlarda investitsiya siyosati samaradorligini oshiradi, ya'ni, kompaniyaning investitsiya siyosatini ishlab chiqish va xorijiy mamlakatlar bozorlaridagi ish sharoitlariga moslashtirish masalalarida menejmentni takomillashtirish, investitsiya jarayonlari orqali kompaniya ishlab chiqarishini tashqi bozorda rivojlantirish, buning natijasida eksportni kengaytirish va pirovardida iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarini aprotatsiya qilish.** Ushbu ilmiy-tadqiqot ishining natijalari 20 ta konferensiya, jumladan 11 ta respublika va 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilindi va ijobiy xulosalar olindi. Dissertatsiya ishining

ayrim qismlari va natijalari Germaniyaning Bremen universiteti Jahon iqtisodiyoti va xalqaro menejment instituti seminari majlisida (2012 yil 15 avgustdagi 3-son bayonnomasi), O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Iqtisodiyot Instituti tomonidan muhokama qilingan va ma'qullangan (2013 yil 9 iyuldagi 12 / 7-1/191-son bayonnomasi).

**Tadqiqot natijalarini nashr etish.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 64 ta ilmiy ishlar nashr qilinib, ulardan 1 muallif monografiya, 2 qo'shma monografiya, doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalari Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan 33 ilmiy jurnal, shu jumladan, 6 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda va 27 tasi respublika jurnallarida chop etilgan. Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar. Dissertatsiya hajmi 211 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslandi, maqsad va asosiy vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti shakllantirildi, respublika fan va texnikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilib, ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon qilindi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berildi, tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish va aprobatsiya qilish, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Milliy iqtisodiyotlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonini boshqarishning nazariy jihatlari**" deb nomlangan birinchi bobida xalqaro kapital bozori faoliyatining ilmiy asoslari va uning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish jarayoni bilan aloqasi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni boshqarishning tushunchalar apparati va xususiyatlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilib, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining xususiyatlari ochib berilgan.

Muallif tomonidan amalga oshirilgan tahlillar 1990-yillardan boshlab jahon iqtisodiy makonida iqtisodiyotning xalqaro munosabatlardagi sarmoyaviy aloqalar ustuvorligiga asoslangan yangi turi vujudga kelganligi<sup>9</sup> to'g'risida xulosa qilish imkonini berdi. Tadqiqotchi fikriga ko'ra, xalqaro munosabatlarda savdo munosabatlarining ustunligiga asoslangan modelga (1960-1980 yillar) nisbatan, qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) tovarlar va xizmatlar eksporti o'rniga xalqaro munosabatlarning ustuvor turiga aylanmoqda;

agar 1960-1980 yillarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining o'sishi va jahon savdosiga nisbatan o'zib ketish 2,5 barobarni tashkil etgan bo'lsa, yangi model doirasida bu o'sish 9 barobarni tashkil qildi;

transmilliy korporatsiyalar filiallari tarmoqlari jadal sur'atlar bilan o'sib, xalqaro maydonda xalqaro kompaniyalarning afzalliklarini hisobga olgan holda boshqaruv masalasida milliy davlatlar rolining zaiflashishi qayd etildi.

---

<sup>9</sup> Gubaydullina F., To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, TNK. faoliyat va globallashuv // Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar, M., 2003, No 2, 46-bet.

Dissertatsiya ishida quyidagi ilmiy yo'nalishlar doirasida TTXI larni jalb qilishni boshqarishning nazariy yondashuvlari umumlashtirildi va tizimlashtirildi:

E. Xeksher va B. Olin "ishlab chiqarish omillari o'rtasidagi munosabatlar nazariyasi" doirasida (1933) kapitalning xalqaro harakatiga ta'sir ko'rsatuvchi qo'shimcha omillar: bojxona to'siqlari, firmalarning kafolatlangan xom ashyo manbalariga, kapital qo'yilmalar va geografik diversifikatsiyaga intilishi, mamlakatlar o'rtasidagi yaqinlikni ajratib ko'rsatadilar<sup>10</sup>;

D.Dunning xalqaro kapital harakatining mafkuraviy konsepsiyasini ajratib ko'rsatib, unga ko'ra sarmoyaviy mablag'lar oqimi shartli ravishda ortiqcha kapital mavjud bo'lgan mamlakatlardan shartli tarzda cheklangan miqdordagi mamlakatlarga yo'naltiriladi ("eklektik paradigma").<sup>11</sup>

X. Bos, M. Sanders va S. Secchi aniqlik kiritishicha, kapital marjinal unumdorlik darajasi past mamlakatlardan kapital yuqori marjinal unumdorlikka ega mamlakatlarga samarali harakatlanadi.<sup>12</sup>

Metodologik yondashuvlar, chet el investitsiyalarini jalb qilishni boshqarish muammolarini tadqiq qilishda kompleks yondashuvni anglatadi, bu esa qulay sharoitlarni yaratish va potentsial investorlarga samarali o'zaro aloqalar o'rnatish uchun mo'ljallangan bir qator bosqichlar va metodlarni o'z ichiga oladi. Taklif etilgan metodologik yondashuvning asosiy tarkibiy qismlari analitik, strategik va operatsion metodlarning uyg'unlashgan kombinatsiyasidan iborat (1-rasm).

Muallifning fikriga ko'ra, taqdim etilgan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari nazariyalari bir-birini inkor etmaydi va ko'pincha investitsiya ehtiyojlari va qabul qiluvchi mamlakatlarning rivojlanish darajasiga qarab turli jihatlarni tushuntirish uchun kombinatsiyada qo'llaniladi. Shu bilan birga, D.Dunningning "Eklektik paradigmasi" ushbu sohadagi eng to'liq va ta'sirchan nazariyalardan biri sifatida hisoblanadi.


Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'lishicha, O'zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarish uchun to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni qabul qiluvchi davlat sifatidagi mavqeini kuchaytirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan TTXI yondashuv va nazariyalari qiziqish uyg'otadi. Xususan, muallif fikricha, "uchayotgan g'ozlar" paradigmasi, aslida, "orqada qolishni yengib o'tish sikli" modelidir. Ushbu maqsadlar uchun muallif o'z ishlab chiqarish va boshqaruvini Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyoning qo'shni bozorlariga o'tkazgan yapon kompaniyalarining strategiyalarini o'rganib chiqdi va xorijiy transmilliy kompaniyalarning texnologik va moliyaviy ishtiroki asosida rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy taraqqiyot qanday faollashganini ochib berdi. Yaponiya firmalari Tayvan, Singapur, Gonkong va Janubiy Koreyaga ("Osiyo yo'lbarzlari") sarmoya kiritdilar, ular keyingi yillarda qo'shni Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga - Malayziya, Indoneziya, Vietnam, Filippin va boshqalarga sarmoya kiritdilar.

---

<sup>10</sup> Bulatov A.S. Jahon iqtisodiyoti, YURIST, M.: 2002, 45-bet.

<sup>11</sup> Dunning, J.H., International Production and the Multinational Enterprise, George Allen@Unwin (Publishers) Ltd., London, UK, 1981, p.21-22.

<sup>12</sup> Bos, H.C., Sanders, M. and Secchi, C., Private Foreign Investment in Developing Countries: A quantitative Study on the Evaluation of the Macro-Economic Effects, D. Reidel Publishing Company, Dordrecht-Holland and Boston-USA, 1974, p.118-137.



**1-rasm. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarish metodologiyasi.**

E. Petrushkevich fikriga ko'ra, mamlakatlar o'z taraqqiyotida besh bosqichdan o'tadilar.<sup>13</sup> Ular mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichi (jon boshiga yalpi ichki mahsulot) va investitsiya oluvchilari va/yoki tashqi investorlar bo'lishga moyilligi (jon boshiga sof investitsiyalar eksporti (Investitsiyalar netto-exportchisi (INE<sup>14</sup>) bo'yicha farqlanadi. Muallif qayd etishicha, ko'p mehnat talab qiladigan, past texnologiyali sanoatga ega, shuningdek, tog'-kon sanoati ustun bo'lgan mamlakatlar deyarli har doim to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning sof importchilari bo'ladilar (1-bosqich) – bular Hindiston, Xitoy, Filippin, Kolumbiya va b.<sup>15</sup> Ular ko'p kapital talab qiluvchi va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantira boshlashi bilan bu mamlakatlarga TTXllar kirib kelishi kuchaydi (2-bosqich) - Saudiya Arabistoni, Turkiya, Meksika, Malayziya, Vengriya, Estoniya, Slovakiya.

Muallif tomonidan xulosa qilinadiki, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning deyarli har qanday nazariyasida xorijiy investitsiyalar jarayonini boshqarish vositasi sifatida foydalanish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqishda foydalanish mumkin bo'lgan individual qoidalar va xulosalarni topish mumkin. Shu bilan bigra, investitsiya siyosatini shakllantirishning asosi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning alohida kontseptsiyasi yoki nazariyasi bo'lmasdan, balki bir necha nazariy yondashuvlar elementlarining kombinatsiyasi bo'lishi hamda ularni qo'llash mezonlari va shartlari ushbu o'ziga xos vaziyatga imkon qadar mos kelishi kerak.

Muallif, Jahon iqtisodiy fanining metodologik bazasi, terminologiya apparati, va xalqaro tashkilotlar tavsiyalari tahliliga asoslanib<sup>16</sup>, quyidagicha fikr bildiradi:

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonada deb xorijiy investorning ustav kapitalida har qanday ulush (ustav kapitaliga har qanday shakldagi investitsiya) bilan, ya'ni xorijiy ulushning pastki chegarasini ko'rsatmagan holdagi ishtiroki tushuniladi;

“xorijiy investitsiyali korxonada” tushunchasining yangi tahriri qonun asosida qabul qilinishi maqsadga muvofiq;

“xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonada” (XIIK) tushunchasini bosqichma-bosqich bekor qilish.

Shu munosabat bilan tadqiqot jarayonida “Xorijiy investitsiyali korxonada” va “Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonada” ning umumiy va o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi, hamda imtiyozlar berishni nafaqat to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar faktiga, balki to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonada maqomiga ham “bog'lash” noo'rin. Misol uchun, Rossiyada xorijiy sherikning ustav kapitalidagi ishtirokining pastki darajasi 10% deb belgilangan bo'lsa, ammo imtiyozlar 25% darajadan, Xitoy amaliyotida esa – 3 million AQSH dollaridan boshlanadi.

---

<sup>13</sup> E.A.Petrushkevich, Zakonomernosti dinamiki pryamih inostrannih investitsiy v SNG, Bankauski vestnik, oktyabr, 2008, 19-20 b.

<sup>14</sup> INE - investitsiyalarning eksportchisi tomonidan joylashtirilgan va jalb qilingan investitsiyalar hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ijobiy INE pozitsiyasi mamlakatning to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof eksportchisi, salbiy esa - to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof importchisi ekanligini ko'rsatadi.

<sup>15</sup> Mamlakatlarga oid misollar va bosqichlar BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha konferentsiyasi (UNCTAD, 2004) materiallari asosida berilgan.

<sup>16</sup> World Investment Report 2005: Transnational Corporations and the Internalization of R&D, New York and Jeneva, 2006, p.4

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida rivojlanish institutlarining to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonidagi faoliyatiga doir ayrim muammolar aniqlandi (1-jadval).

Muallif fikricha, korporativ boshqaruvni takomillashtirish nuqtai nazaridan quyidagilar amalga oshirilishi zarur:

boshqa mamlakatlar tajribasiga ko'ra, ko'proq ishlab chiqarish va texnologik yo'naltirilganlik bilan bog'liq bo'lgan, minoritar qo'shma korxonalaridan majoritar (ko'pchilik) qo'shma korxonalariga, majoritar qo'shma korxonalaridan to'liq xorijiy korxonalariga (XK -100%) o'tish jarayonini (evolyutsiyasini) kuzatib borish;

milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, uni modernizatsiyalash va texnologik jihozlashda xorijiy kapital rolini, xorijiy investorlarning motivlari va niyatlarini o'rganish;

investitsiya muhitining holatini, mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash;

O'zbekistonning jahon iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuviga, xorijiy kapitalni tartibga solish qoidalarini birxillashtirishga ko'maklashish.

**1-jadval**  
**O'zbekiston Respublikasida taraqqiyot institutlari faoliyatiga oid muammolar**<sup>17</sup>

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Tarkib</b>
1	Boshqaruv tuzilmalari samaradorligining yetarli emasligi	Ba'zi muassasalar boshqaruv muammolariga, jumladan, boshqaruv tuzilmalarining samarasizligi, malakali kadrlar yetishmasligi va loyihalarni zamonaviy boshqarish usullaridan yetarli darajada foydalanmaslik kabi muammolarga duch kelishlari mumkin.
2	Muvofiqlashtirish va strategik rejalashtirishning yetishmasligi	Turli rivojlanish institutlari va boshqa davlat organlari o'rtasida muvofiqlashtirishga oid muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bu harakatlar takrorlanuvchanligiga, resurslardan samarasiz foydalanishga va strategik maqsadlarga erishish samarasi tushib ketishiga olib kelishi mumkin.
3	Moliyaviy ta'minot yetishmasligi	Rivojlanish institutlari cheklangan byudjet resurslariga duch kelishi mumkin bo'lib, bu esa ularning loyihalarini yetarli miqdorda moliyalashtirish qobiliyatiga to'sqinlik qiladi.
4	Xususiy sektorning yetarli darajada ishtirok etmasligi	Muammolardan biri xususiy investorlar uchun rivojlanish institutlari qo'llab-quvvatlayotgan loyihalarda ishtirok etishning kam jozibadorligi bo'lishi mumkin. Bu huquqiy bazaning mavhumligi, moliyalashtirish imkoniyati cheklanganligi yoki boshqa omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.
5	Xalqaro tashkilotlarning imkoniyatlaridan foydalanish	Ba'zan muassasalar xalqaro tashkilotlar yoki boshqa manbalarning texnik yordami va maslahatlaridan yetarlicha samarali foydalana olmasliklari mumkin.
6	Natijalarni monitoringi va baholashdagi qiyinchiliklar	Loyiha natijalarini monitoring qilish va baholashga yetarlicha e'tibor bermaslik rivojlanish institutlari samaradorligini baholash va olingan tajriba asosida strategiyalarni yaxshilash ishini qiyinlashtirishi mumkin.

Institutsional mexanizmlarni (qonunlar, institutlar, qoidalar va normalar) xalqaro normalar bilan uyg'unlashtirish nuqtai nazaridan respublikaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy

<sup>17</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarish xususiyatlari ochib berilgan, takliflar berilgan, shu jumladan:

Adliya vazirligi, Sanoat, investitsiyalar va savdo vazirligi, Markaziy bank va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ishtirokida yagona ro'yxatga oluvchi organni tashkil etish;

xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar, shu jumladan, tarkibiga majoritar va minoritar shakldagi "qo'shma korxonalar" (QK), "xorijiy korxonalar" (XK-100%) kabilarni olgan statistik hisobotlar tizimini qabul qilish;

shuningdek ushbu tushunchalarni qonun loyihasida (tushuncha apparatida) taqdim etish maqsadga muvofiq;

boshqaruv tizimiga xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun mulkiy munosabatlardagi o'zgarishlarning (xorijiy ishtirokchi ulushlari) kirib kelishi va dinamikasini kuzatib borish imkonini beradigan yangi shakl joriy etish.

Dissertatsiyaning **"O'sib borayotgan xalqaro raqobat sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarish bo'yicha jahon tajribasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida bozor noaniqligi sharoitlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar harakatining asos sharoitlarining o'zgarish jarayonlari va jahon tendensiyalari o'rganiladi. MDX, Markaziy va Sharqiy Evropa, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarishning qiyosiy tahlili amalga oshirilib, shuningdek, xorijiy davlatlarning TTXIlarni jalb qilishga oid raqobatbardosh strategiyalari va ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Jahon iqtisodiyotida vakolatli milliy agentliklar va tuzilmalar tomonidan davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda o'rganilishi va hisobga olinishi talab etilgan qator trendlar mavjudligi qayd etiladi.

Xalqaro kapitalning 2019-2023 yillardagi harakati tahlili ham koronavirus inqirozi ta'sirida yuz bergan ulkan o'zgaruvchanlikni namoyish etdi. 2020-yildagi o'ta keskin pasayish va 2021-yildagi muayyan o'sishdan so'ng, 2022-yilda ham ichki, ham tashqi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qisqargani (-25%) va 2023 yilda nisbiy o'sish qayd etildi. Ayniqsa rivojlangan mamlakatlar guruhida eng katta pasayish qayd etilgan. Markaziy Osiyo mamlakatlari guruhida, o'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining 2019-yildagi 8,2 milliard AQSH dollaridan 2023-yildagi 7,4 milliard AQSh dollariga (- 9,0 foiz) pasayishi kuzatildi (2-jadval).

Ayni paytda deyarli barcha mamlakatlar guruhlari global investitsion imkoniyatlaridan foydalanishga intilmoqdalar. Dissertant firricha, xorijiy investitsiyalarni boshqarish tizimida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining asosiy sharti ularning import (jalb qilish) bilan bir qatorda, faol eksport qilinishi ekanligini hisobga olish kerak. Misol uchun, to'plangan (yalpi) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi (chiqishi) 2000 yildagi 7 408,9 milliard AQSH dollaridan 2023 yilda 44380,9 milliard AQSH dollariga (5,9 marta) oshdi. Ta'kidlash lozimki, 2000-2010 yillarda jahonda TTXIlarni import va eksport qilish hajmi jihatidan deyarli tenglashgan va ular orasidagi farq 2023 yil yakunlariga ko'ra bor-yo'g'i 10% ni tashkil etdi (3-jadval).

**Mintaqalar va milliy iqtisodiyotlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi, 2019–2023 yillar (milliard AQSH dollari).<sup>18</sup>**

Mintaqa	TTXI oqimlari (kirish)					TTXI oqimlari (chiqich)				
	2019	2020	2021	2022	2023	2019	2020	2021	2022	2023
Dunyo	1707,8	961,9	1478,1	1294,7	1331,8	1400,7	731,8	1729,1	1489,7	1550,5
Rivojlangan davlatlar	998,7	315,5	597,2	378,3	464,3	1002,4	349,9	1244,2	1030,8	1059,3
Rivojlanayotgan davlatlar	709,1	646,5	880,9	916,4	867,4	398,4	381,9	484,9	458,9	491,2
Osiyo	503,5	516,5	662,1	661,8	621,1	346,2	382,7	445,3	396,1	440,4
Markaziy Osiyo	8,2	6,5	7,2	10,0	7,4	-2,6	-2,1	1,5	-2,2	0,9

Dissertant ta'kidlashicha, davlat boshqaruv tizimida bevosita xorijiy investitsiyalarning o'zaro oqimlari xalqaro kapital harakati nazariyalari asosida amalga oshirilishini hisobga olish kerak. Misol uchun, Yaponiya an'anaviy tarzda mintaqa mamlakatlari (Gonkong, Tailand, Singapur, Janubiy Korea - "uchayotgan g'ozlar paradigmasi"), shuningdek, Shvetsiya - Finlyandiya bilan; Germaniya-Avstriya-Shveysariya orasida bo'lgani kabi barqaror sarmoyaviy aloqalarga ega ("qo'shnihilik effekti").

**Mamlakat va mintaqalar bo'yicha yalpi to'g'ridan-to'g'ri investitsiya xajmlari dinamikasi (milliard AQSH dollari).<sup>19</sup>**

Mintaqa/ Mamlakat	TTXI oqimlari (kirish)				TTXI oqimlari (chiqich)			
	2000	2010	2020	2023	2000	2010	2020	2023
Dunyo	7 377	19 842	41 354	49 130	7408	20440	39 247	44 380
Rivojlangan mamlakatlar	3988	13443	28 680	33 434	5265	17556	30 135	34404
Rivojlanayotgan mamlakatlar (Afrika, Lotin Amerikasi va Kariblar, Osiyo va i Okeaniya)	1738	6102	11 803	15696	861,8	3014	8 674	9976
Transitiv Janubiy Sharqiy Evropa (JShE)**, MDX* shu jumladan:	61	698	870,1		0,8	369,2	436,7	
JShE mamlakatlari	5,6	43,5	90,2*		0,8	2,9	6, 7*	
MDX mamlakatlari	55,2	646,3	761,2*		20,4	365,3	427,0*	

c- tahmin ma'lumotlar; \*2020 yil ma'lumotlari, \*\*-alohida: Albaniya, Bosniya-Gerzegovina, Chernogoriya, Shimoliy Makedoniya, Serbiya

<sup>18</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>19</sup> Muallif tomonidan World Investment Report -2023, p.200-205; World Investment Report-2021, p.252-255; World Investment Report-2017, p.226-229; World Investment Report-2012, p.173-176; World Investment Report-2010, p.172-176; World Investment Report-2008, p.257-260 asosida tuzilgan.

Muallifning tadqiqoti Xitoy davlat hokimiyati organlari institutlarni rivojlantirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash va xatarlarni kamaytirishga qaratilgan, xorijiy mulk huquqlarini himoya qilish, investorlar uchun yanada barqaror va prognoz qilinuvchan muhitni yaratib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilinishini boshqarish siyosatini yuritmoqligini ko'rsatdi (4-jadval).

**4-jadval**

**Xitoyda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishi<sup>20</sup>**

<b>№</b>	<b>Normativ jihat</b>	<b>Tavsif</b>	<b>Mas'ul organlar va muassasalar</b>
1	Huquqiy baza	Investitsion faoliyatni, kompaniyalar, shartnomalar tizimi, bankrotlik va shu kabilarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari.	Milliy xalq assambleyasi, Davlat kengashi
2	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)	Xorijiy investorlar iqtisodiyotning turli sohalariga kirib ishlay olishiga oid nizom.	Savdo vazirligi (MOFCOM), Xitoy taraqqiyot va islohotlar agentligi (NDRC)
3	Investitsion imtiyozlar	Chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar, bojlardan ozod qilish va boshqa imtiyozlar.	MOFCOM, NDRC, mahalliy hokimiyat organlari
4	Infratuzilma loyihalari	Davlat-xususiy sheriklik (DXSH) orqali yirik infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash.	Xitoy taraqqiyot banki (CDB), Xitoyning eksport-import banki (Exim Bank)
5	Moliyaviy tartibga solish	Xorijiy moliya institutlari faoliyatini tartibga solish, valyuta operatsiyalari va kapital qo'yilmalarni boshqarish.	Xitoy Xalq banki (PBoC), Bank komissiyasi (CBIRC), Qimmatli qog'ozlar komissiyasi (CSRC)
6	Texnologiyalar transferi va innovatsiyalar	Subsidiya dasturlari orqali innovatsion tarmoqlarga texnologiya transferi va investitsiyalarni rag'batlantirish.	Fan va texnologiyalar, sanoat va axborot texnologiyalari vazirligi (MIIT), MOFCOM
7	Atrof-muhitni tartibga solish	Investitsiyalarning ekologik xavfsizligini ta'minlash uchun standartlar va qoidalarni joriy etish.	Ekologiya va atrof-muhit vazirligi (MEE)
8	Intellectual mulk huquqlarini himoya qilish	Intellectual mulkni himoya qilish, shu jumladan patentlar, tovar belgilari, mualliflik huquqlari va tijorat sirlari.	Intellectual mulk, patentlar va tovar belgilari boshqarmasi (CNIPA)
9	Xalqaro hamkorlik	Investitsiyalarni himoya qilish va ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish bo'yicha bitimlar tuzish, xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish.	MOFCOM, Tashqi ishlar vazirligi, Xitoy Xalqaro savdoni rivojlantirish kengashi (CCPIT)

Dissertatsiya muallifi turli mamlakatlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb qilinishini boshqarish mexanizmlarini o'rganib chiqib, ularni 3 asosiy turga bo'lish mumkin degan xulosaga keladi (5-jadval), bunda rivojlanayotgan mamlakatlar amaliyoti O'zbekistonga taraqqiy etgan mamlakatlar

<sup>20</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

mexanizmlariga nisbatan yaxshiroq amaliy samara berishi mumkin degan fikrini bildiradi.

5-jadval.

**To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantirish mexanizmlari, 2019-2023 yy.<sup>21</sup>**

	<b>Mamlakat nomi</b>	<b>Choralarning nomi</b>
<b>Yangi investitsiya imtiyozlari</b>		
1	Argentina	Avtomobil sanoati investorlari uchun soliq imtiyozlari: yangi ishlab chiqarish vositalarini sotib olishda tezlashtirilgan amortizatsiya va QQSni muddatidan oldin qaytarish va investitsiya loyihalari doirasida ishlab chiqarilgan sanoat tovarlari eksport bojlaridan to'liq ozod qilish (0%).
2	Misr	iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari va sohalorida TTVIlar hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni olingan daromad solig'i qiymatining 55 foizigacha rag'batlantirish: agar investitsiya loyihasi yoki uni kengaytirishning kamida 50 % chet el valyutasi hisobidan moliyalashtirilsa.
3	Saudiya Arabistoni	investorlarga (jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga - 100%) 50 yillik soliq ta'tilini taklif qiluvchi Birinchi maxsus integratsiyalashgan logistika zonasi. Bundan tashqari, u investorlarga texnik xizmat ko'rsatish va yig'ish bo'yicha QQS imtiyozlarini taqdim etadi.
<b>To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni rag'batlantirish va osonlashtirish uchun boshqa huquqiy va institutsional islohotlar</b>		
1	Bangladesh	Patentni himoya qilish muddatini 16 yildan 20 yilgacha uzaytirgan Bangladesh Patent 2022 yil Qonuni.
2	Fidji	Fiji investitsiya kompaniyasining vakolati va funksiyalari xorijiy investorlarni Tartibga soluvchi organdan xorijiy va mahalliy investorlarni jalb qilish uchun Ko'maklashish agentligiga o'zgartirildi. Agentlik asosiy e'tiborni sarmoya jalb etish va eksportni kengaytirishga qaratadi.
3	Meksika	Investorlarga mintaqalardagi investitsiya imkoniyatlari, milliy protseduralar va kompaniyalar va ta'minot zanjiri etkazib beruvchilari bilan aloqalarni o'rnatishda yordam berish to'g'risida iqtisodiy va biznes ma'lumotlarini taqdim etish uchun „Meksika investitsiya qiling“ biznes markazi tuzildi
<b>To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni liberallashtirish</b>		
1	Xitoy	Chet el investitsiyalariga kirishning “Salbiy ro'yxati” qayta ko'rib chiqilib, avtomobilsozlik sanoati va sun'iy yo'ldosh teleko'rsatuvlari uchun yer usti qabul qiluvchi ob'yektlarda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bo'yicha 50 foizlik cheklov bekor qilindi.
2	Hindiston	TTXI lar Hindistonning Davlat hayotni sug'urtalash korporatsiyasining 20% gacha bo'lgan qismini egallashga ruxsat etiladi. Xorijiy institutsional investorlarga xususiy sug'urta kompaniyalarining 74 % gacha va davlat banklarining 20 % gacha bo'lgan ulushlariga egalik qilishga ruxsat berilgan bo'lsa sa xam, Davlat sug'urtalovchisi aksiyalariga egalik qilishiga yo'l qo'yilmagan edi.
3	BAA	Investorlar va tadbirkorlarga strategik faoliyatdan (mudofaa, aloqa) tashqari deyarli barcha sohalarda 100% xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyalar yaratishga ruxsat berildi. Ilgari xorijiy mulk 49 foiz bilan cheklangan edi.

<sup>21</sup> Muallif tomonidan o'rganilgan materiallar asosida tuzilgan.

Davlat-xususiy sherikligi asosida investitsiya jarayonlarini boshqarish vositasi sifatida taraqqiyot institutlari (TI) keng tarqalgan. araqqiyot institutlarining faoliyati, dastavval, davlatning innovatsion va investisiya siyosatiga ko`maklashishdan iborat.

Xorijiy investitsiyalarning o`sb borish jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi va global qiymat zanjirining yaratilishi natijasida jahon iqtisodiyotining o`zaro bog`liqlik darajasining kuchayishi asosiy omilga aylandi <sup>22</sup>. Dissertatsiya ishida, xorijiy kapitalning hajmi va turlari, uni amalga oshirish shakllari, olib kelingan va chiqarilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning geografik tuzilishi MDH, Markaziy Osiyo va Janubi-Sharqiy Osiyo (BMT, MShE, JShO) mamlakatlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ko'rsatilgan (6-jadval).

**6-jadval**

**MDH, Markaziy Sharqiy Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga milliy iqtisodiyotlarning o'tish davrida TTXI larni jalb qilish jarayonlarining qiyosiy tavsifi.** <sup>23</sup>

<b>Variantlar va mezonlar</b>	<b>MDX</b>	<b>MShE</b>	<b>JShO</b>
Ta'sir etuvchi omillar	Yangi bozorlarning ochilishi, tabiiy resurslarning mavjudligi, malakali arzon mehnat resurslari.	Yangi bozorlarning ochilishi, Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lish istiqbollari, malakali, nisbatan arzon mehnat resurslarining mavjudligi.	Qo'shni davlatlar bozorlaridan samarali foydalanish, ASEAN mintaqaviy integratsiyasi, arzon mehnat resurslarining mavjudligi
TTXI ning asosiy turi	Resurslarga yo'naltirilgan	Samaraga yo'naltirilgan	Resurslarga yo'naltirilgan, keyinchalik - samaraga yo'naltirilgan
Bozorga kirish asosiy shakli	Qo'shma korhona	Birlashish va sotib olish (BvaSO)	Qo'shma korhona
Asosiy sohalar	Birlamchi sektor, resurslarni qayra ishlash	Ishlab chiqarish sektori, texnologik sohalar	Ishlab chiqarish sektori
Eng yiril xorijiy investor	Rossiya Federatsiyasi	EI mamlakatlari	Yaponiya AQSH
TTXI olib chiqishda ishtirok etish	Katta emas, asosan, Rossiya, Qozog`iston, Ukraina	Katta emas	Yuqori samarali, TTXI jalb qilish va olib chiqish xajmlari deyarli bir xil

Ushbu mamlakatlarning har bir guruhida muallif TTXIlar oqimining o`shishiga ko`maklashgan asosiy omillarni belgilaydi. Bu omillar qatorida – Markaziy Sharqiy Yevropa mamlakatlari guruhida - Yevropa Ittifoqi mamlakatlari sarmoyadorlarining kuchli motivatsiyasi, yirik global TMKlar faolligi, Janubi-Sharqiy Osiyo (JShO) mamlakatlarida esa - yirik investor, ya`ni Yaponiyaning, yirik sanoat mamlakatlarining sarmoyalari mavjudligi. JSHO guruhida mintaqaviy integratsiya va hamkorlik investitsiyon jozibadorlikni oshirishning hal qiluvchi omiliga aylandi. Tadqiqot mamlakatlar guruhlarida TTXI lar samaradorligining turli darajalarini,

<sup>22</sup> <https://www.fdiintelligence.com/content/data-trends/the-recent-history-of-global-investment-a-data-perspective-79184>.

<sup>23</sup> Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar umumlashtirish asosida tuzilgan.

ushbu jarayonlarni boshqarishning turli yondashuvlari va usullarini, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ijobiy va salbiy ta'sirini aniqlab berdi.

Markaziy Sharqiy Yevropa guruhi mamlakatlari tajribasi, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shadigan mamlakatlar ichki investitsiyalarning ham yuqori, ham past ulushini namoyish etishini ko'rsatadi. Aksincha, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar iqtisodiy o'sishga kam hissa qo'shgan mamlakatlar ham yuqori, ham past ichki investitsiyalar ulushiga egaligini namoyish qilmoqda. Boshqaruv tizimi uchun bu TTXI lar ichki investitsiyalar o'rnini bosmasligini ("crowding-out"), balki ularga qo'shimcha bo'lib kelishi mumkinligini anglatadi ("knowledge-spillover")<sup>24</sup>.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish va ishda qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari sifatini oshirish maqsadida investorlar TTXI larni qabul qiluvchi mamlakatlar bozorlariga olib kirish shakllari tahlil qilinib, shular jumlasidan:

**Birikish (qo'shilish) va tarkibiga qo'shib olish (Acquisitions & Mergers).** Tahlildan ma'lum bo'lishicha, 2018-2023 yillarda chegaralararo A&M bo'yicha bitimlarning (sotuvlar) umumiy soni 6 821 donadan 7 763 birlikkacha oshganligini va bitimlarning umumiy qiymati 707 milliard AQSh dollarni yoki 2019 yildagi inqirozgacha bo'lgan ko'rsatkichning 86 foizini tashkil etganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni boshqarish tizimida sotuvlar hajmining 62,78 foizi xizmat ko'rsatish, 20,08 foizi ishlab chiqarish sohasiga, 17,40 foizi birlamchi sektorga to'g'ri kelishini e'tiborda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi;

**Qo'shma korxonalar (Joint ventures).** Tadqiqot davomida, dunyoda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimining qariyb 90% "birikish (qo'shilish) va tarkibiga qo'shib olish" (M&A) bitimlari orqali kirib kelib, ya'ni qolgan 2 shaklga (QK va "noldan investitsiyalar") bor-yo'g'i 10% to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi.

Dissertatsiya ishida qo'shma korxonalar obyektiv sharoitlarga ko'ra o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirishning asosiy shakliga aylanganligi haqidagi xulosa asoslanadi. Bu investorning motivlari, qo'shma korxonalar turlari, investitsiyalarning xususiyat va shakllariga oid bilimga ega bo'lishni nazarda tutadi. Muallif baholariga ko'ra, qo'shma korxonalar, asosan hamkorlar va ularning kelib chiqish mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy, texnologik va madaniy nuqtai nazardan jiddiy tafovut mavjud bo'lgan hollarda yuzaga kelib, bu esa xorijiy investor uchun o'z tavakkalchiligini bo'lishish uchun muayyan shart-sharoit yaratadi.

Xalqaro tajriba va TTXI larni tartibga solish amaliyotini umumlashtirish ko'rsatishicha, qo'shma korxonalar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning oraliq (o'tish davri) shakli bo'lib, islohot jarayonlari rivojlanishi bilan uning roli pasayib boradi. 100% xorijiy kapitalga ega xususiy korxonalar, ko'pchilik ishtirokidagi (sho'ba) korxonalarining bosqichma-bosqich paydo bo'lishi va ko'payishi, qo'shilish, qo'shib olish, sotib olish (dastlab milliy korxonalar o'rtasida),

---

<sup>24</sup> Direktinvestitionen: Der Wachstumsmotor in Mittel- und Osteuropa, Deutsche Bank Research, EU-Monitor, 24.06.05, S.19.

yangi investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar (Greenfield investment) ma'lum darajada qo'shma korxonalarni (QK) investitsiya shakli sifatida siqib chiqara boshlaydi;

**Yangi korxonalariga investitsiyalar (Greenfield investment).** Ushbu turdagi investitsiyalar strategik investitsiya hisoblanib, investorga yangi korxonaning loyihalashdan tortib, boshqaruv tuzilmasigacha bo'lgan barcha jihatlarini to'liq nazorat qilish imkonini beradi. Biroq, ular katta kapital qo'yilmalarni talab qiladi, hamda ayniqsa o'tish davri mamlakatlarida yuqori darajadagi risk bilan bog'liq. Bu jihatdan sanoat sohasi (telekommunikatsiya, energetika, farmatsevtika va b.) va Janubi-Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari eng jozibali hisoblanadi;

**Maxsus iqtisodiy zonalar** to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning samarali vositasiga aylanib bormoqda, masalan, XXR quyidagi provinsiyalarida: Tyantszin, Futszyanda (Syamen, Fuchjou, Pingtang), Guandunda (Shenchjen, Guanchjou, Chjuxay) va Hindistonda: Arshiya, FTWZ - Panvel, Maharashtra, Arshiya FTWZ - Khurja, Uttar Pradesh, Jasinfra FTWZ – Palval, Haryana, Gujarat porti Pipavav FTWZ – Pipavav, Gujarat, Adani portlari va SEZ FTWZ – Mundra, Gujarat, Mumbai FTWZ – Mumbai, Maxarashtra, Chennai FTWZ – Chennai, Tamilnadu;

**Transmilliy korporatsiyalar.** Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga yo'naltirilgan yirik sarmoyalar tufayli TMKlar turli mamlakatlarda innovatsiyalarni yoyishadi va texnologik taraqqiyotni rag'batlantiradilar, lekin shu bilan birga, mamlakatning yirik investorlarga (Apple, Toyota, Shell, Coca-Cola, Samsung va b.) qaramligi ortib boradi.

**Dissertatsiyaning “Milliy iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonining hozirgi holati va boshqaruv tendensiyalari”** deb nomlangan uchinchi bobida iqtisodiyotni texnologik modernizatsiyalash sharoitlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tendensiyalari tadqiq etilgan va investitsiya muhitini shakllantiruvchi institutsional muhit tahlil qilingan, shuningdek, boshqaruvni markazsizlashtirish sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning hududiy va tarmoq jihatlarini o'rganildi.

“O'zbekiston-2030” strategiyasida “...Mamlakatimizga 250 milliard dollar sarmoyani o'zlashtirish, xususan, 110 milliard dollarlik xorijiy investitsiya va davlat-xususiy sherikligi doirasida 30 milliard dollarlik investitsiyalarni jalb etish” kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.<sup>25</sup>

Xususan, ushbu strategiyani amalga oshirish doirasida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qator muhim islohotlar tashabbusi bilan chiqib, ular jumlasidan, valyuta bozorini liberallashtirish va ko'p sonli valyuta kurslarini unifikatsiyalash, soliq va bojxona tizimidagi o'zgarishlar qilish, davlat-xususiy sherikligini taraqqiy ettirish, moliya-bank sohalarida islohotlar amalga oshirish va davlat korxonalarini xususiy lashtirish, litsenziyalash va ruxsat berish mexanizmlarini liberallashtirish, turli

---

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413.>

tarmoqlarda raqobatbardosh muhit yaratish, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Ushbu strategiya xorijiy sarmoyalarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutadi. Sarmoya jalb etishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida elektr energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, „yashil“ iqtisodiyot, kommunal xo‘jalik va suv resurslarini boshqarish kabi sohalar belgilab olindi.

Tadqiqotda Strategiya doirasidagi sarmoya va biznes bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tashabbuslar qatorida qishloq xo‘jaligi va yerdan foydalanish sohasidagi, hamda ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar, iqtisodiyotni raqamlashtirish, savdo rejimini liberallashtirish va mintaqaviy bojxona uyushmalari va JST tarkibiga kirish ehtimoli, davlat korxonalarini xususiylashtirish va transformatsiya dasturlarini amalga oshirish kabilar ajratib ko‘rsatilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil dekabrda “Investitsiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Q-598-son Qonuni xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan amalga oshiriladigan investitsiyalar va investisiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasi, hududiy va tarmoq rivojlanish konsepsiyalari doirasida, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining tasdiqlangan dasturlari va qarorlari asosida respublikaning o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan investisiya siyosati strategiyasi bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish davlat dasturlari va investisiya dasturlari ishlab chiqila boshlandi.<sup>26</sup>

Shunday qilib, investitsiyalarni rivojlantirishning prognoz ko‘rsatkichlari 2021-yildagi 251,085 milliard so‘mdan 2025 yil uchun 459,215 milliard so‘mga oshdi (1,82 baravar), to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarning prognoz hajmi 7661 million AQSH dollaridan 11209 million AQSH dollariga (1,44 baravar) ko‘paydi, bu esa milliy iqtisodiyotning xorijiy investitsiyalarga bo‘lgan yuqori ehtiyojidan va ularni o‘zlashtirish salohiyatidan dalolat beradi (7-jadval).

2000-2024 yillarda xorijiy kapitalni rivojlanish tendentsiyalarini o‘rganish ularning respublika iqtisodiy yuksalishidagi roli ortib borayotganini ko‘rsatadi. Shunday qilib, O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar ulushi belgilangan davrda 0,76 foizdan 10,34 foizgacha oshdi (8-jadval).

---

<sup>26</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari: “Investitsiya va infratuzilma loyihalarini jadal amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 20.06.2018 yildagi PQ-3794-son; “2018-2019-yillarda investisiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3874-son, 19.07.2018 y.; “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan investisiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 19.12.2018 yildagi 4067-son; O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida, 09.01.2020 yildagi PQ-son 4563-son.; “O‘zbekiston Respublikasining 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 28.12.2020 yildagi 4937-son; “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investisiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuvlari va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 30.12.2021 yildagi PQ-72-son; “Respublika investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston 2023-2025 yillarga mo‘ljallangan PQ 28.12.2022 yildagi 459-son.

## 7-Jadval

O'zbekiston Respublikasida 2021-2025 yillarda markazlashtirilgan va markazlashmagan investitsiyalarni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari, mlrd. So'm.<sup>27</sup>

Moliyalashtirish manbalari	2021	2022	2023	2024	2025
<b>Jami, kapital qo'yilmalar</b>	<b>251 085</b>	<b>309 335</b>	<b>352 717</b>	<b>403 038</b>	<b>459 215</b>
<b>Markazlashtirilgan investitsiyalar</b>	52 005	60 196	55538	65 622	72 428
Respublika byudjeti	17 700	19 650	25 886	28 074	29 400
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, so'm Million AQSh doll.	2 607 239	3 005 253	3 171 267	3 454 271	4 545 335
Davlat tomonidan kafolatlangan xorijiy kreditlar (so'm) Million AQSh dollari	31 698 2 908	37 541 3 160	26 481 2 225	34 094 2 675	38 483 2 837
<b>Markazlashtirilmagan investitsiyalar</b>	19 9079	249 139	297 179	337 416	386 788
Korxonalar mablag'lari	57 551	68233	93 930	107 534	125 350
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	39 989	49 111	57 696	64782	74 532
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'm) Million AQSh dollari	83 500 7 661	110 448 9 297	116 193 9 764	133 200 10 452	152 073 11209
Aholi mablag'lari	18 040	21 346	29 360	31 900	34 833

## 8-Jadval

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish, shu jumladan kreditlar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI), yalpi ichki mahsulot (YaIM), xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) hajmini rivojlanishlari, 2000-2024 yillar, mln. AQSH doll.<sup>28</sup>

Yillar	YaIM		TTXI*		Xorijiy investitsiya va kreditlarni o'zlashtirish		Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi	
	Mln. AQSH doll.	YaIM dagi ulushi, %	Mln. AQSH doll.	YaIM dagi ulushi, %	Mln. AQSH doll.	YaIM dagi ulushi, %	Mln. AQSH doll.	YaIM dagi ulushi, %
2000	13741,2	100	105,2	0,76	727,5	5,29	1281,8	9,32
2003	10133,9	100	156,4	1,54	493,6	4,93	1237,2	12,20
2006	17329,0	100	444,0	2,56	613,9	3,54	2590,0	14,94

<sup>27</sup> Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2021-2023 va 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya loyihalari Manzilli dasturlari asosida tuzilgan.

<sup>28</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

2009	33681,0	100	996,2	2,95	2768,2	8,21	6495,1	19,28
2012	67509,5	100	1273,1	1,88	2462,1	3,64	9894,6	14,65
2015	86172,0	100	874,7	1,01	3234,9	3,75	10476,0	12,15
2018	58701,3	100	1132,9	1,92	3737,2	6,36	11741,1	20,0
2021	77336,3	100	2819,1	3,64	9554,3	12,34	10323,9	13,34
2024	114962,0	100	11887,5	10,34	26401,9	22,96	13139,3**	11,42
*2000-2008 yy. to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar ** - dastlabki ma'lumotlar								

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirishda 2024-yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga 493652,9 trillion so'm investitsiyalar o'zlashtirildi, bu 2023-yilga nisbatan 127,9 foizni tashkil etdi (9-jadval).

9-jadval.

**O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd. so'm**<sup>29</sup>

Yillar	2020	2021	2022	2023	2024
Asosiy kapitalga jami investitsiyalar	210195,1	239552,6	266240,0	356071,4	493652,0
Respublika byudjeti	14316,2	22172,4	21373,3	23297,8	22800,3
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	2515,7	3005,9	2482,7	2070,7	3545,5
Korxonalar mablag'lari	66848,5	68359,7	80844,6	83314,7	86979,3
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	66537,0	83242,5	98827,3	179300,7	310163,2
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi	1949,8	2793,3	2891,3	2138,8	1849,0
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi chet el kreditlari	23221,8	18128,8	15037,0	22391,4	23633,1
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	15933,0	19145,0	17487,6	13574,8	12720,4
Kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar	36855,0	53331,9	59077,3	88095,8	159633,4
Aholining mablag'lari	18873,2	22705,0	27296,2	29982,5	31961,2

Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasining 2020-2024 yillarga mo'ljallangan investitsiya loyihalari dasturi tahlili amalga oshirilib, unda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (TTXIK) hajmi 2020-yildagi 2359,5 million AQSh dollaridan 2024-yildagi 16089,6 million AQSh dollariga (6,81 barobar) qadar ko'paygan. Shu bilan birga, "yangi qurilishlarga" yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 964,3 million AQSH dollaridan 12423,8 million AQSh dollarigacha (12,8 baravar) o'sib, 77,2 foizni tashkil etdi. Bu esa ushbu sohaning ustuvor yo'nalish sifatida tanlanganidan dalolat beradi (10-jadval).

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasining Prezidenti qoshidagi statistika agentligi.

**O‘zbekiston Respublikasi 2020-2024-yillardagi investitsiya loyihalarining maqsadli dasturi, AQSh mln. doll.<sup>30</sup>.**

	AQSh mln. doll (o‘zlashtirish)									
	2020		2021		2022		2023		2024	
	XK XK*	TTXI vaK **	XK XK	TTXI vaK	XK XK	TTXI vaK	XK XK	TTXI vaK	XK XK	TTXI vaK
Jami, shu jumladan	2149,5	2359,5	2082,6	3327,4	1354,4	3833,4	1781,9	6506,9	2603,5	16089,6
Yangi qurilish	798,0	964,3	48,6	1851,8	56,7	514,5	305,4	4603,2	968,1	12423,8
Modernizatsiyalash va rekonstruksiya	648,0	721,6	1152,5	553,7	998,4	126,8	1206,7	623,9	1081,2	1715,4
Boshqa yo‘nalishlar	703,5	673,6	881,6	921,9	299,3	126,8	269,8	1279,9	554,2	1950,4
*- Hukumat tomonidan kafolatlangan xorijiy kreditlar ** - To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar										

Qayd etish lozimki, 2024-yilda yuqorida qayd etilgan maqsadli dastur doirasida (davlat kafolatisiz) to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etishda 1081,2 million dollar (41,52 foiz) modernizatsiya va rekonstruksiya ishlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Ishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish, institutsional o‘zgarishlar, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan investitsiyaviy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlash va kengaytirish chora-tadbirlari bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribani tahlil qilish asosida investitsiya dinamikasining quyidagi bosqichlari asoslab berildi:

**I bosqich** (1991-1997 yy.). Bu davrda xorijiy investorlar uchun mamlakat bozorining yangiligi, tegishli huquqiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, bozor infratuzilmasining ayrim tarkibiy qismlari yo‘qligi, respublikaga kirib kelayotgan xorijiy investitsiyalarning nafaqat kam hajmliligini, balki ularning tarkibini ham belgilab berdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va Taraqqiyot Komissiyasining (UNCTAD) hisob-kitoblariga ko‘ra, 1992-1997 yillarda O‘zbekiston to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar shaklida 700 million AQSH dollariga yaqin mablag‘ jalb qilgan bo‘lib<sup>31</sup>, ya‘ni har yili respublikaga o‘rtacha 62,2 million AQSH dollari olib kiritilgan. Shunday qilib, 1990-yillarda TTXI lar jami kiritilgan xorijiy investitsiyalari hajmining 10% dan ko‘p bo‘lmagan qismini, respublikaga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 1% dan ko‘pini tashkil etmagan.

**II bosqich** (1998-2003 yy.). Milliy investitsiya siyosatining xususiyatlari sifatida respublikamizning xorijiy kapitalni ishlab chiqarish sohasiga jalb etishga bo‘lgan intilishini aytib o‘tish kerak. Misol uchun, 1998 yilda O‘zbekiston iqtisodiyotining sanoat tarmog‘ida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ulushi 67,4 foizni, transport va aloqa tarmog‘ida esa 15,8 foizni tashkil etdi<sup>32</sup>. Respublika asosiy kapitali tarkibidagi qo‘shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlarining ulushi 1999 yildagi 7,0 foizdan 2003 yilda 14,8 foizga, kapital qurilishda, mos ravishda 20,9 foizdan 33,8 foizga ko‘tarildi.<sup>33</sup> Shu bilan birga, respublikaga xorijiy investitsiyalar

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasining tegishli yillarga mo‘ljallangan Davlat investitsiya dasturlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>31</sup> World Investment Report -2000, New York and Geneva, 2000, p.286.

<sup>32</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi.

<sup>33</sup> O‘zbekiston statistika yilnomasi – 2008. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. T., 2009, 278, 287 b.

jalb etish dinamikasi o`sganiga qaramay, muallifning bahosiga ko`ra, 1998-2003 yillarda TTXI hajmlari ancha kichik bo`lib, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining o'rtacha yillik hajmi 75-80 million AQSh dollaridan oshmagan edi.

**III bosqich** (2004 – 2016 yy.) O`zbekistonga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish dinamikasi 2004-yildan (180 million AQSH doll.) o'sa boshlab, 2007-yildan (880 million AQSh doll.) keskin ko`paygan, 2011-yil yakunlariga ko`ra 2 280 million AQSh dollarini tashkil etdi.<sup>34</sup>

Respublika asosiy kapitaliga qo`shilgan xorijiy investitsiyalar umumiy hajmida qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari muhim o`rin tuta boshladi. Misol uchun, ularning asosiy kapitaldagi ulushi 2001 yildagi 16,7 foizdan 2010 yilda 28,2 foizgacha oshib, 2004-2016 yillarda 18-20% darajasida saqlanib turdi. Hozirgi bosqichda respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni umumiy iqtisodiy taraqqiyotning barqaror ijobiy tendensiyalarini, shu jumladan, byudjet profitsitini aks ettiradi.

**IV bosqich** (2017 yildan hozirga qadar). To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2020-yildagi 2951,7 million AQSH dollaridan 2024 yil yakunlari bo'yicha 11887,5 million AQSh dollariga (4,0 marta) qadar ko'tarildi (11-jadval). Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmi ushbu davrda 8398,0 million AQSh dollaridan 13139,3 million AQSh dollarigacha (1,56 barobar) o'sdi.

**11-jadval**

**O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar, shu jumladan kreditlar, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi, yalpi ichki mahsulot (YaIM), xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ishlab chiqarish (ish, xizmatlar) hajmi, 2020-2024 yillar, AQSH mln. doll.<sup>35</sup>**

Yillar	Yalpi ichki mahsulot (YaIM), (AQSH mln.doll.)	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)	Xorijiy investitsiyalarni, shu jumladan kreditlarni o'zlashtirish (XIKO)*	Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ishlab chiqarish (ish, xizmatlar) hajmi (mln. AQSH doll.)
2020	60 215,6	2951,7	8926,1	8398,0
2021	69 597,2	2819,1	9554,3	10323,9
2022	81 132,9	3596,9	10303,3	12449,8
2023	90 871,1	7183,3	16007,7	12099,8 <sup>1)</sup>
2024	114962,0	11887,5	26401,9	13139,3 <sup>1)</sup>

\* so'mning AQSH dollariga nisbatan o'rtacha olingan kursi asosida hisoblangan.

2020-2024-yillarda jalb qilingan xorijiy investitsiyalar geografiyasi tahlili, respublikaga xorijiy kapitalning eng yirik (barqaror) oqimi Xitoy (24,7 foiz), Rossiya Federatsiyasi (15,3 foiz) va Turkiyadan (8,0 foiz) kelayotganligini ko'rsatadi. Shu

<sup>34</sup> Bizning barcha intilishlarimiz va dasturlarimiz – 2011-yilda Vatanni yanada rivojlantirish va xalq farovonligini oshirishga baq'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011-yildagi eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan hukumat majlisidagi ma'ruzasi, "Narodnoye slovo", 2011 yil, 22 yanvar; O'zbekiston Respublikasi statistika organlari va ommaviy axborot vositalari ma'lumotlari.

<sup>35</sup> Muallif tomonidan World Investment Report, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va ommaviy axborot vositalarining tegishli yillardagi ma'lumotlari asosida tuzilgan..

bilan birga, Germaniyadan (5,7 foizga) yo`naltirilayotgan investitsiyalar hajmi o`smay, AQSH (2,8 foiz), Buyuk Britaniya (2,4 foiz), Koreya Respublikasi (1,3 foiz) tomonidan pasayishga moyillik kuzatilmoqda (12-jadval).

Tahlillar ko`rsatishicha, 2020-2024 yillarda respublikaga jalb qilingan XIvaK umumiy hajmining deyarli 40 foizi eng yirik investor-mamlakatlar - Xitoy va Rossiya ulushiga to`g`ri keladi. Bu, shuningdek, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh, Shveysariya, Koreya Respublikasi kabi investitsiyalari yuqori innovatsion tarkibiy qismlariga ega bo`lgan mamlakatlar hisobiga xorijiy kapital manbalarini diversifikatsiyalash zarurati va buning katta imkoniyatlardan dalolat beradi.

Mavjud tendensiyalarni tahlil qilish asosida mamlakatning investitsiya strategiyasi investitsiyalarni jalb qilish, institutsional asoslarni takomillashtirish, institutlarni rivojlantirish va milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun qulay investitsiya muhitini yaratishga yo`naltirilishi lozimligi belgilandi:

**12-jadval**

**O`zbekiston Respublikasida 2020-2024 yillarga asosiy kapitalga jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlar (XIK), yirik investor mamlakatlar bo`yicha, (million AQSH doll.)<sup>36</sup>.**

Mamlakat	Investitsiyalar xajmlari, yillar bo`yicha, AQSh mln.doll.)						Mamlakat ning ulushi (%)
	2020	2021	2022	2023	2024	Jami	
<b>O`zbekiston Respublikasida jami, shu jumladan:</b>	<b>8926,1</b>	<b>9554,3</b>	<b>10303,3</b>	<b>17081,5</b>	<b>26401,9</b>	<b>72267,1</b>	<b>100,0</b>
Buyuk Britaniya	159,5	259,3	134,2	209,5	977,8	1740,3	2,4
Germaniya	553,9	716,1	766,2	741,8	1374,0	4152,0	5,7
Qozog`iston	49,0	84,2	64,9	189,5	358,5	746,1	1,0
Xitoy	2809,9	2013,6	1678,5	3983,7	7374,0	17859,7	24,7
Koreya Respublikasi	303,9	104,5	162,4	127,8	275,8	974,4	1,3
Niderlandiya	119,7	84,4	76,9	498,5	1050,9	1830,4	2,5
Rossiya	1371,9	2266,5	1672,9	2263,1	3482,3	11056,7	15,3
AQSH	473,8	295,7	402,1	308,7	545,9	2026,2	2,8
Turkiya	838,9	1073,6	1041,1	1055,2	1798,7	5807,5	8,0
Shveysariya	132,1	97,1	192,3	578,2	222,7	1222,4	1,7


investitsiya faoliyati mamlakat investitsiya muhitining jozibadorligi va imijini (mavqeini) yaratish, davlat, mahalliy hokimiyat organlari, xususiy sektor o`rtasida yangi daromad manbalarini yaratish va aholi bandligini oshirish, shuningdek,

<sup>36</sup> Muallif tomonidan O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2019-2023 yillar ma`lumotlari asosida tuzilgan..

mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun o'zaro manfaatli hamkorlik va xalqaro sheriklik mexanizmlarini yaratish orqali amalga oshiriladi;

Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha olib borilgan maqsadli siyosat natijasida 2024-yilda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga kiritilgan xorijiy investitsiyalar tarkibida sanoatning ulushi 73,6 foizni, qishloq xo'jaligi ulushi 6,1 foizni, transport va aloqa ulushi 2,48 foizni tashkil etdi<sup>37</sup>;

xususiy xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalar sonining ko'payishi, kapitallashuv va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining oshishida namoyon bo'lmoqda. Natijada milliy iqtisodiyotda asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirishda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi (YaIMga nisbatan foizda) 2020 yildagi 4,92 foizdan 2024 yilda 10,34 foizgacha oshdi. Shu bilan birga, investor mamlakatlar bo'yicha asosiy kapitalga yo'naltirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi dinamikasining tahlili, 2024 yilda Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Germaniyaniya Federativ Respublikasi ulushlari mos ravishda 27,9%, 13,1%, 6,8%, 5,2 % ni tashkil etganligini ko'rsatadi (2-rasm).



**2-rasm – Yirik investor mamlakatlar tomonidan asosiy kapitalga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi, 2020-2024 yy., (mln.AQSh doll).**

Dissertant fikricha, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida chet el kapitali, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ijobiy o'rin tutdi. Mamlakatga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar umuman davlat investitsiya siyosatini shakllantirishda ishtirok etdi va, birinchi navbatda, iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalar hajmining kamayishiga yo'l qo'ymadi. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga sarmoya kiritish imkonini berib, buni islohotlarning dastlabki davrida ichki

<sup>37</sup> Muallifning ma'lumotlari.

jamg'armalar hisobiga amalga oshirib bo'lmaz edi. Markaziy-Sharqiy Yevropa mamlakatlari misolidek, ular ichki investitsiyalarning o'rnini bosa olmasa ham, biroq moliyalashtirishning muhim qo'shimcha manbaiga aylandi.

Xorijiy investitsiyali korxonalarining rivojlanish tendensiyalari tahlili ular iqtisodiy faoliyatning to'laqonli ishtirokchisiga aylangan. Shunday qilib, respublika iqtisodiyotidagi xorijiy kapital hajmi 2020 yildagi 89758,8 milliard so'mdan 2024 yilda 333796,3 mlrd. so'mgacha (3,71 baravarga) oshganligini ko'rsatdi (13-jadval).

Xorijiy kapitalni boshqarishda sanoatlashtirishning ustuvor yo'nalishlari sanoatga yo'naltirilgan investitsiyalar xorijiy kapital umumiy hajmining 73,6 foizini tashkil etishiga ko'maklashdi va 2020 yildagi 62287,0 mlrd. so'mdan 2024 yilda 245847,7 mlrd.so'mgacha (3,94 marta) o'sdi.

Xorijiy kapital shuningdek Respublikamiz ko'p tuzilmali iqtisodiyotni shakllantirishda va moliyalashtirish manbalariga ko'ra iqtisodiyot tuzilmasini o'zgartirishda ham ishtirok etdi. Misol uchun, O'zbekistonning asosiy kapitaliga qo'yilgan investitsiyalar tarkibida qo'shma korxonalar, chet el fuqarolari va tashkilotlari mulkining solishtirma ulushi 2000 yildagi 6,5 foizdan 2024 yilda 33 foizga (5 marta) ko'tarildi.<sup>38</sup>

13-jadval.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar, haqiqiy narxlarda, mlrd. so'm.<sup>39</sup>

Xorijiy investitsiyalar	2001	2020	2021	2022	2023	2024
Jami, shu jumladan:	369,6	89758,8	101371	113864,2	201692,1	333796,3
Sanoat	256,7	62287,0	64350,3	77620,7	145446,3	245847,7
Qishloq xo'jaligi	18,2	6739,9	7659,4	5067,0	7390,0	20372,8
Transport	45,3	3192,5	6996,5	7135,1	11124,8	12334,6
Aloqa	6,9	1765,4	2121,5	1505,8	3471,3	8187,9
Boshqalar	42,5	15774,0	20243,3	22535,6	34259,7	47053,3

Ishda bajarilgan ekonometrik tahlil ko'rsatishicha, O'zbekistonga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi va tarkibi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining ayrim sohalariga (yalpi ichki mahsulot, tashqi savdo aylanmasi va b.) muayyan ta'sir ko'rsatgan. Bundan kelib chiqib ikkita o'zgaruvchisiga ega bo'lgan regressiya funksiyalari berilib, ularning natijalari 3-rasmda keltirilgan.

Tarqalish diagrammasi TTXI oqimi va YaIM (doimiy 2015 y. AQSh doll.) o'rtasidagi ijobiy chiziqli bog'liqlikni ko'rsatadi, bu yuqoriga e'gimli regressiya chizig'ida ko'rsatilgan.  $y=33,9x+4 \times 10^{10}y = 33,9x + 4 \times 10^{10}$  tenglamasi shuni ko'rsatadiki, TTXI oqimining har bir birligiga o'sishi uchun YaIM taxminan 33,9 baravarga o'sishi kutilmoqda, bu esa kutilayotgan YaIMning kesishishi  $4 \times 10^{10}$  marta  $4 \times 10^{10}$  ko'rsatadi, agar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi nolga teng bo'lsa. 0,7775 ga teng bo'lgan  $R^2$  qiymati yalpi ichki mahsulotdagi tafovutning 77,75% to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi


<sup>38</sup> Muallif tomonidan tuzilgan: O'zbekiston Respublikasining 2010 yildagi statistik sharhi, 76-bet; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari.

<sup>39</sup> Muallif tomonidan O'zbekistonning 2008 yil statistika yilnomasi, 290-bet, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bilan izohlanishini anglatadi, bu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi nisbatan kuchli aloqani ta'kidlaydi.

Biroq, regressiya chizig'i atrofida ma'lumotlar nuqtalarining taqsimlanishi shuni ko'rsatadiki, TTXI oqimi YaIM o'zgarishiga sezilarli hissa qo'shgan bo'lsa-da, boshqa omillar ham rol o'ynaydi. Umuman olganda, diagramma to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar oqimi va YaIM o'rtasidagi kuchli bog'liqlikni ko'rsatadi, ammo to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar YaIM o'sishini belgilovchi yagona omil emasligini tan oladi.

Korrelyatsiya matritsasi bir nechta asosiy o'zaro bog'liqliklarni ochib beradi. YaIM ((2015 yil holatiga ko'ra AQSH dollaridagi doimiy kursi) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi (0,88) va yalpi kapital jamlanishi (0,85) bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyaga ega bo'lib, bu esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va investitsiyalar nisbatan yuqori YaIM bilan bog'liqligini ko'rsatadi.



**3-rasm. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimining yalpi ichki mahsulotga nisbati.<sup>40</sup>**

YaIM va demografik yuklama koeffitsiyenti (-0,65) va inflyatsiya (-0,64) o'rtasida mo'tadil salbiy korrelyatsiya mavjud bo'lib, bu yuqori demografik yuklama koeffitsiyentlari va inflyatsiya nisbatan pastroq YaIM bilan bog'liqligiga ishora qiladi.

Kirib kelayotgan TTXI lar oqimi shuningdek yalpi kapital jamlash bilan sezilarli ijobiy korrelyatsiyaga ega bo'lib (0,74), demografik yuklama koeffitsiyenti (-0,58) bilan salbiy korrelyatsiyani ko'rsatadi. Bu hol yuqorida ko'rsatilgandek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kattaroq, lekin pastroq demografik yuklamasi koeffitsiyentlariga ega investitsiyalar bilan bog'liqligini anglatadi.

Bundan tashqari, demografik yuklama koeffitsiyenti davlat xarajatlari (0,88) bilan kuchli ijobiy tarzda bog'liq bo'lib, bu nisbatan baland demografik yuklama

<sup>40</sup> Muallif hisoblari.

koefitsiyentlari katta davlat xarajatlari bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ushbu raqamlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiya va investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotni ta'minlashdagi ahamiyatini qayd etsa, nisbatan yuqori demografik yuklama koefitsiyentlari va inflyatsiya, muallif fikricha, nisbatan pastroq iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liq.

Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonlarini faollashtirish xorijiy investitsiyalarni, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni aniqlash va tasniflashda xalqaro yondashuvlar joriy etilib, mahalliy va xalqaro reyting tizimlari ma'lumotlariga o'zgartirishlar kiritish va sinxronlashtirish bo'yicha shoshilinch chora-tadbirlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Shunga muvofiq ravishda, dissertatsiyada Germaniyaning BTI (**Bertelsmann Transformation Index**) ning 2016-2024 yillar O'zbekiston Respublikasida boshqaruv indeksiga oid hisobotlari tahlil qilingan. Bunda, 2016-yildagi 2,3 balldan 2024-yilda 5,9 ballga (2,56 marta) o'sgan "xalqaro hamkorlik" ko'rsatkichi bo'yicha eng yirik muvaffaqiyatga erishilib, O'zbekistonning "konsensusga erishish" bo'yicha ishlari natijasi ham yuqori, 1,8 dan 4,0 gacha (2,22 marta) baholandi. Shu bilan birga, "boshqaruv qobiliyati (samaradorlik)" mos ravishda 3,0 dan va 4,1 ga (1,36 marta), "resurs samaradorligi" esa 3,5 dan 3,9 ballga (1,11 marta) o'sgan. So'nggi ikki ko'rsatkich, dissertant fikricha, reytingda ishtirok etgan mamlakatlar ro'yxatida Respublika 125-o'rindan 98-o'ringa ko'tarilib, natijasi bor-yo'g'i 1,95 balldan 3,92 ballga o'sgan bo'lsa ham, 2016-2024 yillar uchun BTI hisobotida umumiy baholashda muhim rol o'ynadi (14-jadval).

**14-jadval**

**Xalqaro Bertelsmann Transformation Index (Germaniya) reytingida O'zbekiston Respublikasi bo'yicha menejment indeksini baholash, 2016-2024 yillar, ballarda, 1 dan do 10 gacha).**<sup>41</sup>

№	Ko'rsatkichlar	2016	2018	2020	2022	2024
1	Xalqaro hamkorlik	2,3	3,3	5,7	5,9	5,9
2	Konsensusga erishish	1,8	2,5	3,6	3,8	4,0
3	Resurslar samaradorligi	3,5	2,5	3,7	3,9	3,9
4	Boshqaruv qobiliyati	3,0*	2,6	4,0	4,1	4,1
5	O'rtacha ko'rsatkich	1,95	2,55	3,58	3,83	3,92
6	O'rganilayotgan mamlakatlar orasidagi o'rni	129 dan 125	129 dan 117	137 dan 108	137 dan 104	137 dan 98


\*- Boshqaruv samaradorligi.

Binobarin, BTI da respublika reytingini yanada yaxshilash uchun dastlabki ikki yo'nalishga e'tiborni susaytirmay, "boshqaruv qobiliyati (samaradorligi)" va "resurslar samaradorligi" yo'nalishlaridagi ishlarni yaxshilash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan davlat investitsiya siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish, xorijiy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik manfaatlarini hisobga olgan holda, ushbu jarayonlarni boshqarish bo'yicha qator institutlar faoliyat yuritadi (4-rasm). Muallif 2019-2025-yillarda respublikaning savdo-investitsiya siyosatini amalga oshirishda Tashqi ishlar vazirligining roli

<sup>41</sup> Muallif tomonidan 2016-2024 yillardagi BTI Country Report. Uzbekistan rasmiy xisobotlar asosida tuzilgan.

ortganini hisobga olib, ushbu vazirlikni boshqaruv tizimiga kiritdi. Shunday qilib, O‘zbekiston Oliy Majlisi Senatida O‘zbekiston Respublikasining Koreya Respublikasi, Xitoy, Polsha va Latviyadagi diplomatik vakolatxonalari rahbarlarining hisobotlari eshitildi. Ta’kidlanganidek, mazkur mamlakatlardagi elchixonalar tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi: elchixonalar va O‘zbekiston viloyatlari o‘rtasida aloqalar o‘rnatilib, qator sarmoyaviy loyihalar amalga oshirilmoqda<sup>42</sup>.



**4-rasm. O'zbekiston Respublikasida investitsiya faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi.**<sup>43</sup>

Shu bilan birga, muallif fikricha, respublikada investitsiya sohasida Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), Frantsiya taraqqiyot agentligi (FTA), Koreya xalqaro hamkorlik fondi (KOICA), McKinsey & Company, Boston Consulting Group (BCG), Deloitte & Touche, Tohmatsu Limited,

<sup>42</sup> O'zbekiston. Senatdagi elchilar sarmoya, mehnat muhojirlari va sayyohlar bilan bog'liq ishlar yuzasidan hisobot berdi. 17/03/2025 - <https://centrasia.org/newsA.php?st=1742222520>

<sup>43</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

KPMG International, Standard & Poor's (AQSh), Moody's (AQSH) kabi qator xalqaro institutlar faoliyat yuritishi ham o`ta muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, O`zbekistonning investitsiya siyosatini har tomonlama baholash muallifga investitsiyalarning yangi manbalarini ochish va O`zbekiston iqtisodiyotiga to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish yo`lidagi asosiy muammolar va to`siqlarni aniqlash imkonini berdi:

davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi (narx belgilash, monopollashuv, davlat sektorining katta ulushga egaligi), investorlarning sud tizimi va huquqni muhofaza qilish organlariga ishonchining pastligi, shu jumladan ular tomonidan xususiy kapitalni yaxshi himoya qilinmasligi, raqobatning yetarli rivojlanmaganligi, shular jumlasidan tadbirkorlarning keng ko`lami uchun raqobatbardosh bozorlarga kirib borishni cheklovchi biznes yo`lidagi ma`muriy to`siqlar, investorlarni axborot-kommunikatsiya jihatidan qo`llab-quvvatlash tizimining yetarli darajada rivojlanmagan tizimi va boshqalar;

ishlab chiqarish omillari: yetarli darajada rivojlanmagan muhandislik infratuzilmasi va tayyor ishlab chiqarish binolarining yo`qligi, foydalaniladigan yer resurslari yetishmasligi, investitsiya salohiyatini rivojlantirish uchun mavjud moliyaviy resurslarning yetishmasligi va ular turlari kamligi, asosiy fondlarning eskirishi (asosiy vositalarning eskirish darajasining ortib borishi), malakali ishchi kuchi yetishmasligi, sanoat va tegishli tuzilmalarni (kadrlar tayyorlash, logistika, sotish, standartlar va sh.k.) birlashtirishga ko`maklashuvchi raqamli platforma yo`qligi;

huquqiy tartibga solish: investitsion qonunchilikning nomukammalligi (normalarning turlicha talqin etilishi, tez-tez o`zgartirish va qo`shimchalar kiritilishi), investorlarning qonun loyihalari va boshqa me`yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va muhokama qilish jarayoniga kam jalb etilishi;

tarkibiy muammolar: investitsiyalarning asosiy kapitalga, hamda tarmoqlar va mintaqalar miqyosida TTXI larning yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi, ichki iste`mol bozorining kichik sig`imliliigi, hamkor mamlakatlardagi tarifli va tarifsiz tartibga solinishga oid to`siqlari, investorlar uchun valyuta risklari, mamlakatlarda ESG, shu jumladan uglerodni muvofiqlashtirish tizimiga oid standartlari yo`qligi.

Dissertatsiyaning **“O`zbekiston iqtisodiyotiga to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonini boshqarish usullarini takomillashtirish”** deb nomlangan to`rtinchi bob to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar va xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tasnifining miqdor va sifat tavsiflarini, davlat tomonidan investitsiya muhitini tartibga solish usullarini, shuningdek, to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyot sub`ektlari tomonidan eksport qilish jarayonini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga bog`liq ta`sirini baholagan holda tadqiq etishga bag`ishlangan.

Ehtimoliy ichki va tashqi tahdidlarga moslashish darajasini baholashga, shuningdek, mamlakat iqtisodiy rivojlanish manfaatlarining ichki va xalqaro darajadagi ajralmas qismi ekanligini hisobga olgan holda, to`g`ridan-to`g`ri xorijiy

investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish va ularning institutsional mexanizmlarini takomillashtirishga tizimli yondasuv asoslangan.

Muallif tomonidan “to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar”, “qo‘shma korxonalar”, “xorijiy korxonalar”ga oid terminologik nomuvofiqliklar aniqlandi va tuzatildi, shuningdek, O‘zbekiston amaliyotiga “xorijdagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar” (XTTI) tushunchasini “mahalliy xo‘jalik yurituvchi subyektlar kapitalining xorijda investitsiyalash” ma‘nosida joriy etishning maqsadga muvofiqligi asoslab berildi. Umshbu maqsadda Markaziy Osiyo davlatlari misolida milliy kapital eksportining rivojlanish tendentsiyalari 15-jadvalda keltirilgan. Mazkur jarayonlarni baholashda xorijdagi bunday qo‘shma korxonalar tarmog‘i, moliyaviy resurslar harakati, xorijiy kapitalni jalb etish va eksport shakllari va turlari, kapitalni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish va himoya qilish chora-tadbirlari bo‘yicha alohida statistik bazani ishlab chiqish zarur.

**15-jadval.**

**Markaziy Osiyo mamlakatlari bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (kirish va chiqish) oqimining yalpi hajmi, million AQSH doll.<sup>44</sup>**

	TTXI oqimlari (kirish)				TTXI oqimlari (chiqich)			
	2000	2010	2022	2023	2000	2010	2022	2023
Markaziy Osiyo, shu jumladan:	12,3	101, 6	216,4	222,0	0,049	16, 4	17, 3	17, 9
Qozog‘iston	10,1	82,6	154, 4	157,1	0,002	16, 2	16, 7	17,4
Qirg‘iziston	0,4	1,7	3, 5	3,8	0,03	0,002	0,026	0,027
Tojikiston	0,14	1, 2	3, 3	3, 3	-	-	0,3	0,3
Turkmaniston	0,9 c	13, 4c	41, 5c	42, 9c	-	-	-	-
O‘zbekiston	0,7c	2,6	13, 6	14, 8		0,15	0,20	0,21
c- tahmin ma‘lumotlar								

Ozarbayjon, Markaziy Osiyo davlatlari – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikistonda qo‘shma ishlab chiqarishlar tarmog‘ini yaratgan O‘zAVTO misolida, ushbu mamlakatlarga eksport qilish muammolari, milliy eksportchilarning an‘anaviy tovar – avtomobillar va ehtiyot qismlar eksport qilish o‘rniga kapital olib chiqish (eksport qilish) sabablari va motivatsiyasi ko‘rsatilib, tahlil qilindi. Muallif fikricha, bunday sharoitda avtomobil ishlab chiqarish, ilmiy ishda ko‘rsatilganidek, mintaqa mamlakatlari uchun iqtisodiy o‘sish, mintaqaviy integratsiyalashuv, mintaqaviy ishlab chiqarish zanjirini shakllantirishga yordam beruvchi yana bir drayverga aylanishi mumkin. 2017-2024 yillarda konturlari belgilab berilgan faraz va “uchayotgan g‘ozlar”ning Markaziy Osiyoga xos modeli (5-rasm) hali O‘zbekistonning to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni rezipient mamlakatlarida sinovdan o‘tkazilishi, yangi statistika ma‘lumotlari va ilmiy tadqiqotlar hisobiga yanada rivojlantirishishi kerak.

<sup>44</sup> World Investment Report 2023. Investing Sustainable Energy For All. p.p. 201-204.

				Yaponiya					
			Singapur		Hongkong				
		Taiwan				J.Koreya			
	Malayziya					^^^^^^	Tailand		
	Indoneziya							Filippin	
Xitoy									Vietnam
				O'zbekiston					
		Ozarbayjon			Qozog'iston				
	Qirg'iziston						Tojikiston		

**5-rasm. O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi "Uchayotgan g'ozlar" eklektik paradigma.** <sup>45</sup>

Umuman, O'zbekiston Respublikasi, investitsiyon taraqqiyotning ikkinchi bosqichiga qadam qo'yar ekan, kapital – ya'ni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) eksportida faol ishtirok etmoqda. Xullas, dissertant baholariga ko'ra, Rossiya va Markaziy Osiyo mamlakatlarida O'zbekiston kapitali ishtirokidagi 1700 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Shu maqsadlarda bu jarayonni tizim darajasida boshqarishni tashkil etish muhim bo'lib ko'rinadi.<sup>46</sup> Xususan, respublika kompaniya va firmalari tomonidan xorijiy investitsiyalarni eksport qilish masalalari ularni hisobga olish, ro'yxatdan o'tkazish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, milliy kapital investitsiyalarini hamda yuqori texnologiyali korxonalar (ulushlarni), tabiiy resurslar, "nou-xau" va boshqaruv bilimlari sotib olishni rag'batlantirish bo'yicha (Xitoy amaliyoti) kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb topilgan.

Tadqiqot natijasida O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning uni samarali ro'yobga chiqarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan, to'rt fundamental tamoyilga asoslangan strategiyasi ishlab chiqildi:

a) shaffoflik va xususiy sektor bilan muloqot qilish asosida qaror qabul qilish: boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun o'zaro hamkorlik va axborot almashinish muhim ahamiyatga ega bo'ladi;

b) xususiy sektorni jalb etish: ham investitsiya siyosatini ishlab chiqishda, ham ro'yobga chiqarishda xususiy sektor bilan nisbatan ko'proq tizimli hamkorlik qilish imkoniyatini o'rganish;

c) maqsadlar: ushbu strategiyaning talab darajasidagi monitoringi va baholanishini ta'minlash uchun hukumat faoliyat asosiy ko'rsatkichlarining (KPI) barqaror to'plamini qabul qilishi mumkin;

d) boshqarish institutlari orasida investitsiya faoliyatini respublika, tarmoq va mintaqaviy darajalarda muvofiqlashtirish.

Muallif fikricha, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, O'zbekistonda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasining ustuvor yo'nalishlarini bir necha jihatlarga qaratish maqsadga muvofiq:

<sup>45</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>46</sup> 2024-yil 9-avgustda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining VI Maslahat uchrashuvida "Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha 2025-2027 yillar uchun "Yo'l xaritasi", 2025-2027 yillarga mo'ljallangan Markaziy Osiyo davlatlarining sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar rejasi imzolandi.

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish maqsadida jahon bozorlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, iqtisodiy xavfsizlikning cheklanishlari, "yashil iqtisodiyot"ning zamonaviy tendensiyalari, ishlab chiqarish zanjirlarining shakllantirilishini hisobga olgan holda, hamda mamlakat raqobatbardoshligining o'sishini ta'minlash maqsadida yangi rivojlanish institutlari va o'zaro manfaatli sheriklik mexanizmlarini yaratish orqali shakllantiriladigan "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi"ni ishlab chiqish taklifi asoslab berildi;

qulay investitsiya muhitining davomi va evolyutsiyasi, uning keyingi va yuqoriroq rivojlanish bosqichi sifatida "investitsion-innovatsion muhit" (IIM) tushunchasini amaliyotga kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Umuman olganda, qulay investitsion muhit mezonlariga javob beradigan IIM bosqichi, nafaqat investitsiyalar, balki, birinchi navbatda, ularning sifati, texnik va texnologik darajasi o'sishiga ko'maklashishi shart.

IIM bosqichida, dissertant fikricha, davlat siyosati, ta'lim, fan va texnologiya sohalariga yo'naltirilgan investitsiyalar, bozor infratuzilmasiga yo'naltirilgan investitsiyalar va xorijiy investor siyosati esa – "nou-xau" shaklidagi, ilmiy-tadqiqot markazlarini (R&D) yaratish, kadrlar malakasini oshirishga yo'naltiriladigan investitsiyalarning kattaroq ulushi (muntazam o'sib borayotgani) bilan tavsiflanadi. O'zbekiston Respublikasida investitsion-innovatsion muhitni shakllantirishni boshqarish maqsadida bir qator, xususan, axborot (xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi muvaffaqiyatli korxonalarni ommaviy axborot vositalarida qo'llab-quvvatlash), statistika-tahliliy (shu jumladan hisobotda nafaqat ustav kapitali, balki kompaniya ichidagi investitsiyalar – qarzlarni qayta investitsiya qilingan daromadlar (reinvestitsiyalar), raqamli texnologiyalar, kadrlar tayorlash va malaka oshirish, TTXI samaradorligi va boshqalar), qonunchilik (Investitsiya kodeksini ishlab chiqish), tashkiliy (Idoralararo milliy monitoring guruhini tashkil etish) yo'nalishida chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etildi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida risklarni va xatarlarni boshqarish rivojlangan va rivojlanib borayotgan mamlakatlar tajribasini hisobga olgan holda tadqiq etilib, shuningdek ularning salbiy natijalariga ham baho berildi. Ayrim mamlakatlarning me'yoriy-huquqiy bazasini tahlil qilish asosida "milliy xavfsizlik" va "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchalarini ishlab chiqish zarurligi to'g'risidagi xulosa asoslandi. Shundan kelib chiqqan holda, TTXI larni qabul qiluvchi davlatning milliy xavfsizligini ta'minlash maqsadida xavf va tahdidlarning oldini olish bo'yicha takliflar kiritildi;

O'zbekiston Respublikasining yirik savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlari (XXR, Rossiya Federatsiyasi va b.) ishbilarmon hamjamiyatlari uchun tadbirkorlikni rivojlantirish monitoring qilish maqsadida axborot-tahlil platformasi va onlayn maslahatlar uyushtirish. Axborot-tahlil platformasining amaliyotga joriy etilishi tadbirkorlik rivojlanishini monitoring qilish va biznes-loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish vositalarini takomillashtirish, statistika, sotsiologiya va boshqa shu kabi ma'lumotlarni tahlil qilish, taqdim etish imkonini beradi;

loyihalarni boshqarish sohasida amaliyotga yo'naltirilgan ta'limga asoslangan, respublikada loyihalarni boshqarish standartlarini PMBOK (Project Management

Body of Knowledge) joriy etgan holda mutaxassislar tayyorlash bo'yicha integratsiyalashgan markaz tashkil etish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sohasida tarmoq va mintaqaviy ijro etish organlari uchun yuqori malakali boshqaruvchi kadrlar tayyorlashni ta'minlash; investitsiyalarni jalb qilish sohasida zamonaviy qarashlarga va vositalarga ega bo'lgan kadrlardan iborat, respublika, hududiy va tarmoq miqyosidagi loyihalarni amalga oshirishga qodir jamoalarni shakllantirish va tayyorlash; investitsiyalarni jalb qilish sohasida professional mutaxassislar hamjamiyatini shakllantirish va investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha ko'paytirib targ'ib qilishga yaroqli ilg'or tajribalarni baholash;

O'rganish natijalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy qismi respublikaga taniqli xorijiy kompaniyalar ishtirokidagi yirik loyihalar va hukumatning maxsus qarorlari asosida jalb etilayotganligini ko'rsatdi. Shunga bog'liq ravishda investitsiya jarayonlari (masalan, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy bilan) ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida dissertatsiya doirasida tadbirkorlik subyektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga istiqbolli investitsiya loyihalari va bank kreditlarini olish kafolatlari doirasida innovatsion jarayonlarga investitsiyalarni jalb qilish orqali ishbilarmonlik muhitining jozibadorligini oshirish, tadbirkorlik sub'ektlarining investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, imkoniyatlarini kengaytirish, xavf darajasi, sug'urta to'lovlarini qoplash va shu asosda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladigan kichik korxonalar faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun "Maxsus investitsiya fondi"ni tashkil etish taklif etiladi (6-rasm).


Muallif fikricha, "Maxsus investisiya jamg'armasi" kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy va nomoliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan maxsus muassasadir. Ular quyidagi sohalarda muhim o'rin tutadi:

iqtisodiyotda, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsiyalarni rivojlantirish, kichik va o'rta korxonalar raqobatbardoshligini mustahkamlashga ko'maklashish bilan;

jamg'arma tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatiladi: grantlar (biznes loyihalarini amalga oshirish uchun qaytarilmaydigan mablag'lar), kreditlar (imtiyozli shartlarda, kamaytirish uchun kreditlarni qaytarish kafolatlari), lizing (keyinchalik sotib olish bilan jihozlarni ijaraga olish), venchur investitsiyalar (rivojlanishning dastlabki bosqichlarida innovatsion loyihalarga investitsiyalar) va boshqalar;

mikro, kichik va o'rtacha korxonalar (MSMES, Hindiston) qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqishda, tegishli tarmoqning eksport salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun aniq tarmoqda ixtisoslashgan shaharlar klasterlari (towns of excellence) - sanoatning tarmoq "xab"lar tizimini rivojlantirish maqsadida. Avvaldan mavjud 39 ta shu kabi subyektga yana to'rttasi qo'shildi: Faridobod (kiyim-kechak), Moradobod (hunarmandchilik), Mirzapur (qo'lda to'qilgan gilamlar), Varanasi (qo'l to'qimachiligi va hunarmandchilik mahsulotlari).

Bosh vazirning to'qimachilik sanoatiga ixtisoslashgan mintaqasini va tikuvchilik parklari (Prime-minister Mega Integrated Textile Region va Apparel Parks) yaratish dasturi taqdim etilib, uning doirasida eksportchi va investorlarga imtiyozlar taqdim etiladi.



**6-rasm - Maxsus investitsiya fondi.<sup>47</sup>**

<sup>47</sup> Muallif tomonidan tuzulgan.

## XULOSA

Dissertatsiyada keltirilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi:

1. Tizimli yondashuv asosida O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonini boshqarishni takomillashtirish strategiyasi ishlab chiqilib, shu jumladan, xorijiy kapitalni belgilash, tasniflash, hisobga olish va undan foydalanish. Bitiruv malakaviy ishida olingan asosiy ilmiy natija investitsiya muhitini monitoring qilish va baholash metodologiyasini ishlab chiqish, respublikaning investitsion jozibadorligini oshirishdir.

2. Jahon to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarining nazariy asoslarini, nomologik (izohlovchi) nazariyasining tahlili asosida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning asosiy nazariyalarini O'zbekiston sharoitlarida qo'llash zaruriyati, ularni respublika sanoatining ayrim tarmoqlari, mintaqalari va korxonalari tomonidan qo'llash imkoniyati va zarurligi asoslab berilgan.

3. Chet el kapitalidan samarali foydalanish uchun "tadbirkorlik kapitali" – to'g'ridan-to'g'ri, shuningdek portfelli investitsiyalarning alomatlar va chegaralari, hamda turlarini aniq belgilab olgan holda xorijiy investitsiyalarning umumiy tasnifini qabul qilish zarur ekanligi haqidagi fikr asoslandi.

4. Tasniflash (ta'riflash) nazariyasi asosida xorijiy kapital turlarini tizimlashtirish taklif etilib, ular quyidagilarni tasniflab beradi: to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning amalga oshirilish shakllari; xorijiy kapital, shu jumladan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni hisobga olish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining ustav jamg'armalari bo'yicha ko'rsatkichlari tizimi, xorijiy kapitalning kiritilish shakllari.

5. Butun dunyo bo'ylab to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar harakatining zamonaviy tendensiyalari, turli mintaqalar va mamlakat guruhlarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida boshqaruv tajribasi tahlil qilindi va umumlashtirildi. MDH, Markaziy Sharqiy Yevropa va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning zamonaviy amaliyoti umumlashtirilib, uning o'ziga xos xususiyatlari, va yuqorida ko'rsatilgan mamlakatlar guruhlarini investitsion jozibadorligining asosiy omillari aniqlanadi.

6. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ijobiy va salbiy ta'sirini baholash bilan risklar (xatarlar) aniqlab olindi. Turli mamlakatlar tajribasi va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni boshqarish va ulardan foydalanish mexanizmlarining ijobiy jihatlari aniqlanib, ularni O'zbekiston sharoitlarida qo'llash imkoniyatlari belgilab olindi.

7. Potensial xorijiy investorlarga nisbatan ularning milliy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalash dasturlarida ishtirok etishini nazarda tutgan holda tanlab (selektiv) siyosat yuritish zarurligi asoslab berildi.

8. Xalqaro iqtisodiy makonga integratsiyalashuv va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi talablarini inobatga olgan holda milliy va xorijiy investorlar uchun bazaviy shart-sharoitlarni birxillashtirish yo'nalishida respublikadagi investitsiya muhitini yanada yaxshilash zarurati asoslab berildi.

9. Respublikaning xorijiy investitsiyalarga oid qonun hujjatlariga xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq qator asosiy tushunchalarni (tushunchalar apparatiga) kiritish zarurligi taklif etilib, Markaziy Osiyo davlatlarida xorijiy investitsiyalar bilan bog‘liq asosiy tushunchalar (tushunchalar apparati) qiyosiy tahlil qilinib, tavsiyalar ishlab chiqildi; respublikaning chet elga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarini (TTXI) hisobga olish, monitoring qilish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni qonun chiqarish tartibida e’tirof etishning alohida ahamiyatga egaligi isbotlandi va xalqaro tajriba asosida qonunchilikda “iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasini qabul qilish zarurligi asoslab berildi.

10. O‘zbekistonning chet elga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalari eksporti tahlili asosida (avtomobil sanoati misolida) “uchayotgan g‘ozlar” eklektik paradigmasining Markaziy Osiyo modeli taklif etiladi.

11. O‘zbekistonda respublikaning alohida mintaqalarida investitsiya muhitini monitoring qilishning Milliy tizimini shakllantirish, mintaqaviy investitsiya risklarini baholash metodologiyasini ishlab chiqish va ularni kamaytirish mexanizmini shakllantirish zarurati asoslab berilgan.

12. O‘tkazilgan ekonometrik tahlil O‘zbekistonga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi va tarkibi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yalpi ichki mahsulot, tashqi savdo aylanmasi kabi ayrim sohalariga ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatganligini namoyish etdi.

13. Tahliliy, strategik va operativ usullarni tahlil qilish asosida qulay shart-sharoitlar yaratish va potentsial investorlar bilan samarali hamkorlik qilishga qaratilgan qator bosqich va usullarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuv bo‘lgan xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini boshqarish metodologiyasi taklif etilmoqda.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.15/31.12.20.1.09.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**НАДИРХАНОВ УБАЙДУЛЛА САБИРОВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЦЕССОМ  
ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В  
РЕСПУБЛИКУ УЗБЕКИСТАН**

**08.00.13 - Менеджмент  
08.00.03 – «Экономика промышленности»**

**АВТОРЕФЕРАТ  
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА (DSc) ПО ЭКОНОМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2025**

**Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за № B2025.2.DSc/Iqt39.**

Докторская диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета по адресу ([www.tstu.uz](http://www.tstu.uz)) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный консультант:** **Турсунходжаев Марат Лутфуллаевич**  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** **Тураев Баходир Хатамович**  
доктор экономических наук, профессор

**Хамидулин Михаил Борисович**  
доктор экономических наук, профессор

**Арабов Нурали Уралович**  
доктор экономических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Ташкентский государственный экономический университет**

Защита диссертации состоится « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_\_\_ час. на заседании Научного совета DSc ..... по присуждению ученых степеней доктора экономических наук при Ташкентском государственном транспортном университете по адресу: 100000, г.Ташкент, Темирйулчилар, 1. Тел./факс : (+99871)2935754, e-mail : rector@tstu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (зарегистрирован за №162). Адрес: 100000, г.Ташкент, Темирйулчилар, 1. Тел./факс : (+99871)2935754

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2025 г.  
Реестр протокола рассылки № \_\_\_\_\_ от \_\_\_\_\_ 2025 г.

**О.К.Абдурахманов**  
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**М.И.Акбаров**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат экономических наук, доцент

**А.А.Гуламов**  
Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))**

### **Актуальность и востребованность темы диссертации.**

Совершенствование управления процессом привлечения прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в мировую экономику является важнейшим фактором экономического роста стран, стимулирования трансфера технологий и углубления их интеграции в зарубежные рынки.

В условиях современной глобализации внедрение эффективных механизмов управления будет способствовать обеспечению стабильного и целевого притока ПИИ, что позволит развивать местные производственные мощности, выпускать конкурентоспособную продукцию, создавать высококвалифицированные рабочие места. Также системная и прозрачная стратегия управления привлечением ПИИ окажет положительное влияние на улучшение международного инвестиционного климата, экономическую стабильность и рост макроэкономических показателей.

Согласно докладу Всемирного банка «Перспективы развития мировой экономики», ...для достижения целей глобального развития к 2030 году, развивающимся странам необходимо будет обеспечить значительное увеличение инвестиций.— около 2,4 триллиона долларов в год. Предположительно, рост инвестиций на душу населения в развивающихся экономиках в период с 2023 по 2024 год составил в среднем всего 3,7%, что составляет чуть более половины темпов предыдущих двух десятилетий. На основе исследования опыта 35 стран с развитой экономикой и 69 развивающихся стран за последние 70 лет выявлено, что когда рост инвестиций на душу населения поддерживают на уровне до 4% в течение шести лет темпы сближения с уровнями доходов в развитых экономиках ускоряются, уровень бедности снижается быстрее, а рост производительности увеличивается в четыре раза.<sup>1</sup> Поэтому совершенствование этого процесса является одним из стратегически важных приоритетов, отвечающих национальным интересам.

Сегодня приоритетные направления научных исследований по совершенствованию управления процессом привлечения прямых иностранных инвестиций в мире направлены на анализ изменяющихся тенденций в мировой инвестиционной среде, оценку эффективности национальных законодательных и институциональных реформ, совершенствование механизмов управления инвестиционными рисками, а также выявление стратегических секторов и разработку для них целевых мер стимулирования. Эти исследования особенно важны для формирования новых подходов к управлению потоками ПИИ в контексте цифровой трансформации, зеленой экономики и развития инновационных инфраструктур. В то же время научные анализы, связанные с механизмами международного сотрудничества и региональными интеграционными процессами, также имеют приоритетное значение для эффективного управления ПИИ.

---

<sup>1</sup> Доклад Всемирного банка «Перспективы мировой экономики» (2024) [www.worldbank.org/gerp](http://www.worldbank.org/gerp)

В число задач, поставленных по совершенствованию управления процессом привлечения прямых иностранных инвестиций в Узбекистан, входят диверсификация экономики, создание благоприятного инвестиционного климата, развитие современной инфраструктуры, укрепление правовых гарантий. В этом направлении реализуются такие меры, как внедрение системы «Единого инвестиционного окна», упрощение процедур выдачи разрешений и лицензий, расширение деятельности свободных экономических зон, формирование институциональных механизмов, направленных на укрепление прямого диалога с иностранными инвесторами. Политика привлечения ПИИ последовательно реализуется также посредством предоставления налоговых и таможенных льгот, создания цифровых платформ, обеспечивающих открытость инвестиционных проектов, программ, направленных на развитие человеческого капитала. Эти меры служат повышению конкурентоспособности Узбекистана на мировой инвестиционной арене и обеспечению устойчивого экономического роста. За последние годы объем экспорта увеличился в 2,2 раза, а доля внешней торговли в ВВП достигла 57 процентов.

Однако нестабильность мировой экономической конъюнктуры, меняющаяся ситуация, новые тарифы и ограничения оказывают цепное влияние на другие государства, замедляя глобальный экономический рост и сокращая объемы международной торговли. По всему миру могут возникнуть сбои в цепочках поставок и производства продукции с высокой добавленной стоимостью. Это приведет к жесткой и бескомпромиссной конкуренции на международных рынках<sup>2</sup>. Вместе с тем, Республика Узбекистан к 2030 году должна стать одной из стран с более высокими доходами на душу населения, чем в - среднем. «Это будет достигнуто, в первую очередь, за счет стимулирования частного сектора и увеличения его доли, а также за счет привлечения прямых иностранных инвестиций».<sup>3</sup> Необходимость повышения эффективности привлекаемого в республику иностранного капитала, в первую очередь, в виде прямых иностранных инвестиций (ПИИ), требует совершенствование системы управления, а также уточнение понятийного аппарата и их классификации. Это создаст необходимую основу для более высокого уровня менеджмента различных форм реализации ПИИ в условиях Узбекистана и развития на этой основе институциональных механизмов улучшения инвестиционного климата.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан: «О Стратегии «Узбекистан-2030», №УП-158 от 11 сентября 2023 года, «О мерах по совершенствованию деятельности фонда прямых инвестиций Республики Узбекистан» №УП-215 от 7 сентября 2022 года, «О дополнительных мерах по обеспечению дальнейшего развития экономики и повышению эффективности

---

<sup>2</sup> Выступление Президента Шавката Мирзиёева на видеоселекторном совещании по обсуждению мер, направленных на снижение негативного влияния глобальных экономических колебаний на отрасли Узбекистана, 18 апреля 2025 г. <https://kknews.uz/241019.html>

<sup>3</sup> Выступление Президента Узбекистана Ш.Мирзиёева 06.11.2021 г после церемонии вступления в должность <https://tafsilar.info/politika/v-den-inauguracii-shavkat-mirzijojev-vystupil-s-rechju/>. Народное слово, 2021 г, 7 ноября

экономической политики” №УП-5614 от января 2019 года, “Об утверждении Концепции административной реформы в Республике Узбекистан” №УП-5185 от 8 сентября 2017 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан: «О мерах по дальнейшему совершенствованию порядка проведения экспертизы предпроектной документации инвестиционных и инфраструктурных проектов, закупочной документации по тендеру, технического задания на государственную закупку и договоров» №ПП-332 от 25 июля 2022 года, «О мерах по дальнейшему совершенствованию механизмов привлечения прямых иностранных инвестиций в экономику республики» №ПП-4300 от 29 апреля 2019 года; «О мерах по созданию и организации деятельности Совета иностранных инвесторов при Президенте Республики Узбекистан» №ПП-4519 от 13 ноября 2019 года, «О мерах по совершенствованию механизма управления инвестиционными проектами с участием международных финансовых институтов и стран-доноров» №ПП-3796 от 21 июня 2018 года и в других нормативно-правовых актах.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данная диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

